

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI

«JINOYAT HUQUQI» KAFEDRASI

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI.

**MAVZU: Giyohvandlik jinoyatlarini qarshi kurash va uning oldini olish
choralari.**

**BAJARUVCHI: 4-kurs kunduzgi bo'lim tolibi
Salomov Abbos**

ILMIY RAHBAR: kat. o'q. R.I. Mirzaev

SAMARQAND -2012

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. GIYOHVANDLIK JINOYATLARI TUSHUNCHASI, IJTIMOIY XAVFLILIGI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI	10
1.1. Giyohvandlik vositalarining g'ayriyqonuniy muomilasi bilan bog'liq jinoyatlar tushunchasi va uning ijtimoiy xavfliligi	10
1.2. Giyohvandlikka qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy muammolari	21
2-BOB. GIYOHVANDLIK JINOYATLARINI OLDINI OLISH MUAMMOLARI	30
2.1. Giyohvandlikni oldini olish sub`ektlari va ularning vazifalari	30
2.2. Giyohvandlikni oldini olish tizimini takomillashtirishning istiqbolli choralari	45
2.3. Giyohvandlikning oldini olish borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi	57
XULOSA	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	75

KIRISH

Jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish samaradorligi jazoning og'irligi va shafqatsizligiga emas, balki birinchi navbatda, qonunni buzgan shaxsning jazoning muqarrarligini nechog'li anglashiga bog'liq.

Islom Karimov

Mavzuning dolzarbligi. Giyohvandlikka qarshi kurash borasida mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar natijasida yildan-yilga bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Birinchi navbatda, ushbu masalaga davlat miqiyosida katta e'tibor qaratilganini, narkomaniyaga qarshi kurashning mustahkam huquqiy bazasi yaratilganini, xavf-xatarni bartaraf etish maqsadida keng jamoatchilikning faolligiga tayanilayotganini alohida e'tirof etish zarur. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ushbu illatga qarshi kurash chora-tadbirlari bir necha bor kuchaytirildi.

Ijtimoiy salbiy illatlardan biri bo'lgan giyohvandlikka qarshi kurash va uning oldini olish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, nafaqat respublikamiz, balki butun dunyo jamoatchiligini jiddiy tashvishga solmokda. Ushbu muammoning qay tartibda o'z echimini topishi butun insoniyatning ertasini belgilab beradi. Shu sababli giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashni tashkil etish barcha kuch va vositalarni birlashtirishni takazo qilmoqda. Insoniyat ertasi uchun giyohvandlik muammosining nechog'li dolzarb ahamiyat kasb etishini ta'kidlar ekan, Prezidentimiz I. A. Karimov BMT bosh assambleyasining 48-sessiyasida «Biz ana shu illatga qarshi kurashda keng ko'lamli hamkorlik qilish tarafdorimiz. Jahonda ishlab chiqarilayotgan moddalarning talaygina qismi Markaziy Osiyoda tayyorlanganligi yoki uning orqali tashib o'tilayotganligi hech kimga sir emas. Narkobiznesning tranzit yo'nalishlari bir mintakada jamlanishining o'ziyoq mana shu dahshatli hodisani tugatishda jahon hamjamiyati o'z imkoniyatlarini jamlab ishga solish uchun

etarli asos bo'ladi. O'zbekiston barcha manfaatdor mamlakatlar va tashkilotlar bilan bu borada hamkorlik qilishga tayyor»¹ deb ta'kidlagan edi.

Narkomaniyaga qarshi kurash qonunchilikni va huquq-tartibotni mustakkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muxofaza qilishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

YUrtboshimiz Islom Karimov tomonidan «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida giyohvandlik va narkobiznesga qarshi kurashning mamlakatimiz barqarorligini saqlashdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan edi. O'tgan yillar davomida narkobiznesga qarshi olib borilgan ishlar mamlakatimizda giyohvandlikning oldini olish, psixotrop vositalar oldi-sotdisini bartaraf etish samaradorligining oshishiga olib keldi.

Respublikamiz mustakillikka erishgandan so'ng giyohvandlikka qarshi kurash kuchaydi, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. O'zbekistonning bu yunalishdagi asosiy tanlagan yo'li transmilliy uyushgan jinoiy guruhlar narkotik vositalarni kontrabanda qilish uchun respublika hududidan foydalanishining oldini olish, giyohvandlik vositalarining qonuniy muomalasi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish samaradorligini ta'minlash, giyohvandlikka chalingan bemorlarga kafolatli tibbiy yordam ko'rsatish, shuningdek, bu sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Giyohvandlik vositalari tyg'risida»gi (1961 yil) yagona Konventsiya, «Psixotrop moddalar tyg'risida»gi (1971 yil), BMTning «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qarshi kurashish» bo'yicha (1988 yil) Konventsiyalari ishtirokchisidir.

Ta'kidlash joizki, Respublikamizda 1994 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining Narkotik moddalarni nazorat qilish Davlat komissiyasi faoliyat ko'rsatmokda.

1 Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan kolsin» – T., «O'zbekiston». 1996. -55 bet.

"Tabiiyki, narkotik moddalarning bir qismi bizning mintakamizga singib ketmokda. Bu esa jinoyatchilikning o'sishiga, yoshlarning buzilishiga, hatto millatning genofondi aynitpiga sabab bo'lmoqda"¹. Respublika huquqni muxofaza qiluvchi organlari va Sog'liqni saqlash muassasalarining ma'lumotlariga ko'ra, 2007 yilda doimiy ravishda giyohvandlik vositalarini istemol qiluvchi fuqarolar 14400 nafar bo'lgan bo'lsa, 2008 yilning boshlarida bu ko'rsatkich 25 mingga yaqinlashgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, giyohvandlik vositalariga ruju qo'yganlar soni 2008 yilda 2007 yilga nisbatan 40 % ga ortgan. Respublikamizda 2009 yilga kelib ro'yxatga olingan giyohvandlarning soni 38 mingga yaqin kishini tashkil etgan. Biroq bu ko'rsatkichlar respublikamizdagi giyohvandlik vositalari bilan bog'liq haqiqiy vaziyatni to'liq aks ettirmaydi. O'zbekiston Respublikasi MXX xodimlarining tezkor ma'lumotlariga ko'ra haqiqiy ahvol rasmiy ro'yxatga olinganlar sonidan ko'ra 10-15 marotaba ko'pdir². Bundan tashqari o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga bo'lgan talab ham tobora ortib bormokda. Taxlillarning ko'rsatishicha keyingi yillarda giyohvandlikning ijtimoiy negizi sifat jihatdan o'zgardi. Bu illatning eng xavfli jihati shundaki, giyohvandlik voyaga etmaganlar orasida ham ko'payib, «yosharib» bormokda. Giyohvandlik vositalariga moyillik yoshlarda katta yoshlardagilarga nisbatan 6-8 marta tezrok shakllanadi.³ O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotlariga ko'ra voyaga etmaganlar orasida giyohvandlik illatiga chalinish 2006 yilda 2007 yilga nisbatan 16 % ga, 2008 yilda 2009 yilga nisbatan 16,5% ga ko'paygan. Giyohvandlik vositalarini ko'lga kiritish jarayoni ham kundan-kunga osonlashib, mustahkamlanib bormokda.

Giyohvandlikning alohida ijtimoiy yo'nalishlarga ega bulib borayotganligi, ya'ni, yoshlar va xususan voyaga etmaganlar, shuningdek ayollar orasida

1 Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998. -B. 437-438

2 Abdullaev A. Problemi borbi s narkobiznesom i narkomaniey v Respublike Uzbekistan.//Giyohvandlikka karshi kurash: nazariy va amaliyot (ijtimoiy-huqukiy jixatlar) mavzusidagi xalkaro ilmiy Amaliy anjuman materialalri. -T.: 2009.

3 Pavlova T.A. Meditsinskie aspekti narkomanii u detey i podrostkov // Mejdunarodnoe sotrudni chestvo pravooxranitelnix organov v borbe s organizova prestupnostyu i narkobiznesom. Materiali mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. Sankt-Peterburg, 25 iyulya 1997 g. CH. TU. -SPb, 1997. -S.33-34.

keng tarqalib borayotganligi uning xavfliligini yanada oshib borayotganligidan dalolat beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilarning soni yildan-yilga asosan yoshlar hisobiga o'sib bormokda. eng achinarlisi surunkali giyohvandlikka muhtalo bo'lganlar soni keskin ortib o'z navbatida turli ijtimoiy muammolarga sabab bo'lmokda. Taxminiy hisob kitoblarga ko'ra bugungi kunda umumjaxon miqyosida 200 milliondan ortik kishi turli xil giyohvandlik vositalarini iste'mol qiladi. Shundan taxminan 140 million kishi eng keng tarqalgan giyohvandlik vositasi marixuana cheksa, 13 million kishi kokain, 8 million kishi heroin, 30 million kishi esa amfitamin turkumiga kiruvchi stimulyatorlarni iste'mol qiladi¹. BMT ning giyohvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha Dasturi ma'lumotlariga ko'ra esa, noqonuniy iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalarining tarqalishi har yili jahon aholisining 3,3 dan 4,1 % gacha qismini o'z domiga tortadi.² BMT qoshidagi Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlarining ma'lumotlariga ko'ra butun dunyo bo'yicha rasman ro'yxatga olingan giyohvandlar soni 48 milliondan oshib ketdi,³ ekspertlarning xulosasiga ko'ra, ularning 70%⁴ ni yoshlar va o'smirlar tashkil etadi. Ayrim mamlakatlarda maktab o'quvchilari va voyaga etmagan yoshlar o'zlari tan olishlaricha 37 foizi marixuana iste'mol qilib ko'rgan.⁵

Giyohvandlik vositalari bilan savdo-sotiqni tashkil qilish maqsadida jinoiy guruhlar tomonidan aniq bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat olib borilmokda. Ular giyohvandlik vositalariga bo'lgan talabni har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirishga harakat qilmokdalar.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi umumjaxon savdosining taxminan 8 % ni tashkil qilmoqda.⁶ Keyingi yillarda giyohvandlik vositalarining noqonuniy savdosi bilan shug'ullanadigan jinoiy guruhlar faoliyati

1 Interpol ma'lumoti asosida (Interpol, 4-th International Heroin Conference, Yangon, Myanmar, 23-rd - 26-th February 1999)

2 World Drug Report, UNDCP. Oxford University Press. New York, 1997.

3 POROT, Antoine et Maurice. Les toxicomanies. - Paris, 1993, p. 44.

4 Сергеев А.О. О легализации наркотиков. Информационный бюллетень НЦБ Интерпола в России. 1994. №9.

5 Молодежь и наркотики: глобальный обзор. Комиссия по наркотическим средствам ЭКОСОС ООН, Е/сп. 7/1999/8. Вена, 16-25 марта 1999 г., п. 29.

6 Противодействие незаконному обороту наркотических средств и психотропных веществ. Учебное пособие. М. "Цит-М". 2001.-С.52

muayyan davlat hududidan chiqib transmilliy narkosindikatlarni yuzaga keldi. Ular o'z ehtiyojlari yo'lida fan-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanishi ularning texnik-moliyaviy imkoniyatlarini oshirmokda. Giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ko'pchilik davlatlar hukumatlari tomonidan qabul qilinayotgan jiddiy choralar qaramasdan giyohvandlik vositalari savdosi moliyaviy operatsiyalar ko'lami bo'yicha jahonda qurol-yarog' savdosidan keyingi ikkinchi o'ringa chiqdi. Giyohvandlik vositalarini ishlab chiqaruvchi va ularni butun dunyo bo'ylab tarqatuvchi jinoiy ushjumalar daromadlari 500 milliard AQSH dollaridan ortib ketdi.

Tadqiqotchilar fikricha, kelajakda giyohvandlikka ruju qo'yish dunyo, mintaqaviy va mahalliy miqyosda keskin o'sib boradi. Voyaga etmaganlar orasida giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda ko'lga kiritish, iste'mol qilish (ayniqsa, giyohvandlik vositalarini tomirga jo'natish) sintetik giyohvandlik vositalariga bo'lgan talabning o'sib borishi kutilmokda. Aholi orasida giyohvandlik bilan kasallanganlar, yuqori malakali tibbiy yordamga, ijtimoiy ta'minotga, tarbiyaga muhtojlar soni ham o'sib boradi.

Giyohvandlik jinoyatchilik bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida 2004-2009 yillarda giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq bo'lgan 40288 ta jinoyat ro'yxatga olingan bo'lsa, 2007 yilda 9005ta jinoyat qayd etilgan va bu jinoyatlarni ochish natijasida 11,5 tonna giyohvandlik vositalar musodara qilingan.¹ Umuman jinoyatchilik, bir tomondan giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishga va giyohvandning shaxsiy hayotida o'zgarishlarga olib kelsa, ikkinchi tomondan giyohvandlik huquqbuzarning xulq-atvorini, ishtiyoq va odatlarini, jinoiy mavqeini belgilaydi. Bu asosan voyaga etmaganlarga xos bo'lib, ularning kriminogen va viktimologik xususiyatlarida yakqol namoyon bo'ladi. Shu sababli, giyohvandlikning jinoyatchilik bilan bog'liqligi masalalarini o'rganish va ularning oldini olish muammosi nixoyatda dolzarbdir.

1 Niyazov A. Xalkaro narkobiznesa qarshi faoliyatda prokuraturam i ng o'rni. //Giyoxvandlikka karshi kurash: nazariya va amaliyot (ijtimoiy-xukukiy jixatlar) mavzusidagi xalkaro ilmiy-amaliy anjuman materialalri.-T.: 2002.-B. 121-122. . O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi ma'lumotlaridan. -T.: 2002.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Giyohvandlik bilan bog'liq masalalarning turli jihatlarini huquqshunoslar G.A.Axmedov, e.X.Abazov, M.G.Ikromova, M.M.Qodirov, YU.M.Karaketov, Z.S.Zaripov, R.A.Zufarov, Q.Mirzajonov, M.H.Rustambaev, I.Sobirov, I.A.Safarov, M.Sobirov, F.Tohirov, M.Usmonaliev, A.S.YAkubov va boshqa mualliflar tomonidan tadqiq etilganligiga qaramay, giyohvandlik muammosining hozirgi davr nuqtai nazaridan baxsli tomonlari, ushbu illatni oldini olish choralari yanada samaraliroq ko'llash nuqtai nazaridan etarli darajada o'rganilmagan. Giyohvandlik bilan bog'liq muammolar respublikamizda ilmiy-amaliy nuqtai nazardan hozirga qadar etarlicha o'rganilmaganligini yana bir bora ta'kidlash lozim. Shuningdek, giyohvandlikning oldini olish, jinoyatchilik va giyohvandlik orasidagi o'zaro aloqadorlik muammosi ham haligacha tadqiq etilgan emas.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi – giyohvandlikka qarshi kurash va uning vujudga kelish sabablari va uni oldini olishning muammoli va munozarali masalalarini o'rganishdan iboratdir.

Ko'rsatib o'tilgan maqsadga erishish uchun qo'yidagi vazifalar belgilanadi:

- giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasiga qarshi kurash usullari tushunchasiga aniqlik kiritish;

- giyohvandlikning vujudga kelish va giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish sabablarini aniqlash, giyohvandlik va jinoyatchilikning o'zaro bog'liqligini o'rganish hamda ularni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini yaratish;

- giyohvandlikni oldini olishga qaratilgan huquqiy choralarning samaradorligi va kamchiliklarini o'rganish asosida jinoyat qonuni normalarini takomillashtirish, giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatchilikning oldini olish;

- huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa vakolatli davlat organlarining giyohvandlikni oldini olish borasidagi faoliyatini o'rganish asosida ularning bu boradagi faoliyati samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chikish;

- giyohvandlikning oldini olish tushunchasi mazmunini ochib berish;
- xorijiy mamlakatlarning giyohvandlikning oldini olish borasidagi tajribalari o'rganish;
- giyohvandlikning oldini olishga qaratilgan taklif va xulosalarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi giyohvandlikka qarshi kurash va uni oldini olishning maxsus adabiyotlarda o'z echimini topa olmagan munozarali masalalariga aniqlik kiritish, giyohvandlik muammosining oldini olishning kompleks choralarini ishlab chikish, giyohvandlikning ijtimoiy xavfli oqibatlarining siyosiy, strategik asosini aniqlash, jamiyatni ushbu muammoning ijtimoiy xavfidan ogohlantirish kabi chuqur ilmiy izlanishlardan iboratdir. Giyohvandlikning hozirgi holati kriminologiya nukta nazaridan tahlil kilindi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi kirish, ikki bob, besh paragrafa, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB. GIYOHVANDLIK JINOYATLARI TUSHUNCHASI, IJTIMOIIY XAVFLILIGI VA ULARGA QARSHI KURASH.

1.1. Giyohvandlik vositalarining g'ayriqonuniy muomilasi bilan bog'liq jinoyatlar tushunchasi va uning ijtimoiy xavfliligi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari bilan muomilada bo'lish jinoyatlarini o'rganishda muammoning tushunchasi, mohiyatini aniqlash lozimdir. Bu - fansunoslikning aksioma shaklidagi qoidasi hisoblanadi¹. Atamalarining ma'nosini aniqlash nafaqat emperik tadqiqotlar olib borishda², balki amaliy faoliyat yuritishda ham muayyan ahamiyatga egadir. Ana shunday sohalardan biri giyohvandlikka qarshi kurashdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun aniq bir ma'noni bildiruvchi atamalarni topish jinoyatning predmetga bo'lgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning xususiyatlarini aniqlash va ularni guruhlarga ajratish lozimdir. Bu esa ijtimoiy xavfli qilmishning kvalifikatsiya qilish, ekspertizalar o'tkazish, tergov taktikasini amalga oshirish, jamiyatning ushbu illatga chalinganligi bilan bog'lik sifat va miqdor ko'rsatkichlari aniqlanib va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarini hal qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonunida ishga bevosita aloqador bo'lgan giyohvandlik atamasining tushunchasi berilganligi bu vazifani ancha engillashtirdi. Qonunning 3-moddasiga ko'ra "Giyohvandlik (narkomaniya) - giyohvandlik vositalariga ruxiy-jismoniy qaramlik bilan bogliq kasallik" dir. Bu atama giyohvandlik muammosining ijtimoiy, xuquqiy va boshqa jihatlarini o'z ichiga qamrab olmaydi.

Ushbu qonunning 3-moddasida bundan tashqari ko'yidagi asosiy tushunchalarning mohiyati ochib berilgan:

1 Mansurov N.S. Vstupitelnaya statya /Rixtarjin K.Sosiologaya na putyax poznaniya. -M: Progress, 1981 .-S.9.
2 Rabochaya kniga sosiologa. M.: Misl, 1976. -S.49. O'zbekistonning yangi qonunlari. №22. T.: 1999. -B. 168.

Giyohvandlik (narkotik) vositalari - giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va Uzbekistan Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar;

Psixotrop moddalar - psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va Uzbekistan Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chikishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

Prekursorlar - prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va Uzbekistan Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar;

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari - kimyoviy tuzilishi va xossalriga kura giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruxiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chikishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

Preparat - moddalarning xar kanday fizik xolatidagi tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo'lgan aralashmasi;

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va lekursorlarning muomalada bo'lishi - giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chikish), tranzit tarzida o'tkazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taksimlash, olish, tashish, jo'natish, ishlab chikish, ishlab chiqarish, tayyorlash ulardan foydalanish va ularni yo'k qilish, shuningdek, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni etishtirish;

Qonunning asosiy tushunchalar deb ataluvchi 3-moddasida ayrim atamalarga, xususan "giyohvandlik"ka aniq ta'rif berilgan, boshka atamalar esa yanada aniqroq ta'rif berilishini talab qiladi. Bizningcha, giyohvandlik vositasining huquqiy ta'rifiga uning tibbiy me'zonlarini xam kiritish maqsadga muvofikdir. (Bu masalaga keyinrok, to'xtalamiz va nihoyat xozir oldimizga turli xil tushunchalarning o'zaro munosabatini tahlil qilish, aniqlash vazifasi qo'yilgan). "Giyohvandlik" (narkomaniya) va "narkotizm", tushunchalarining mazmuni va o'zaro bog'liqligini aniqlash nazariy jihatdan muhim va o'ziga xos xususiyatga

egadir. Bunday gariflar, fakat atamashunoslik nuqtai nazardan ahamiyatga ega bo'lmagan, balki, shunday salbiy hodisalarning mohiyatini tushunish va huquqiy reglamentatsiyaning EILMISH bilan bogliqligi, "giyohvand", "giyohvandliqdagi kayflik holati", taksikomaniya", "voyaga etmaganlar orasidagi giyohvandlik"va qator boshqa me'zonlarning ta'rifiga ham bog'likdir.

Bizning fikrimizcha, ushbu muammoni tadqiq etishda tibbiyotda (ko'proq narkologiyada) qo'llaniladigan "narkomaniya", "narkoman" atamaları, nafaqat tibbiyot xodimlari, balki hukuqshunoslar, sotsiologlar, pedagoglar, siyosatchilarga ham birdek tegishli ekanligini inobatga olish kerak. Bundan tashqari, bu atamalar huquqga oid qonun hujjatlari¹ bilan ham bog'liqki, ularni tibbiyot nuqtai nazaridan kelib chiqib, asossiz qo'llash mumkin emas. Shunday ekan, giyohvandlik bilan bog'lik jamiyat uchun chavfli hatti-harakatni fakat tibbiyot nuqtai nazaridan tushunish, navbatdagi xatolarni keltirib chikaradi. Butun jahon Sog'likni saqlash tashkiloti (BST) ekspertlar kl'mitasining e'tibori faqat giyohvandlikni keltirib chikaradigan dorivor moddalarga karatilganligini alohida ta'kidlash lozim ².

SHunday ekan "giyohvandlik (narkomaniya)" atamasini tibbiyot nuqtai nazaridan kullaydigan bo'lsak, bunday hol ayrim huquqiy muammolarni xal qilishda, noto'g'ri fikrga olib keladi, ya'ni ayrim holatlarda javobgarlik shaxsning kilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi³ tufayli emas, balki shaxsning o'ziga xos xolati - kasalligi -giyohvandlik bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa qonunda belgilangan jinoiy javobgarlikka tortish asoslariga qarama-qarshidir . Giyohvandlikning asosiy mazmunini ochib berish u bilan bog'liq huquqiy muammoning ilmiy echimini topish uchun ushbu tibbiyotga oid atamaning to'g'ridan-to'g'ri huquqshunoslikda ko'llanilishi mantiqan mumkin emas. Qayd etilgan fikrlar giyohvandlikning oldini olish, giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilganilik bilan bog'liq muammolarni, giyohvandlikning mohiyatini huqukiy va

1 Ахмедов Г., Кадыров М. Наркомания, преступность, ответственность. -Т.: Ўзбекистон, 1989. -С.81-89.

2 Комитет экспертов ВОЗ по лекарственной зависимости. 20-й доклад. -М.: Медицина, 1975. -С. 11.

3 Загородников Н.И. Преступления против здоровья. -М.: 1969. -С.9; Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. -Т.: -С. 204; Тохиров Ф. Шахсга карши жиноятлар. -Т.: 2001. -С.34.

kriminologik nuqtai nazardan o'rganishda boshka atamalarning ko'llanilishi lozim ekanligini ko'rsatadi. Shu sababdan "giyohvandlik vositasi" atamasining mazmunini aniqlash xam muximdir, chunki u giyohvandlik (narkomaniya) kasalligini vujudga keltiradi.

Hozirga kelib shaxsning ruxiyatiga faol ta'sir ko'rsatuvchi moddalar doirasidan ijtimoiy xavfi juda katta bo'lgan, ya'ni umuman jamiyatga va uni iste'mol qiluvchi va tarqatuvchi shaxslarga keng miqyosda ziyon keltiruvchi giyohvandlik vositalari olimlar va amaliyot xodimlari tomonidan alohida ajratib o'rganilmoqda.

Giyohvandlik vositalari atamasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta me'zonlar nazarda tutiladi. Ushbu tushuncha ko'yidagi me'zonlarni o'z ichiga oladi;

1. Tibbiy me'zon, ya'ni ushbu vositaning markaziy asab tizimiga ko'zg'atuvchi, gallyutsinogen, sedativ va boshqacha ta'sir ko'rsatish natijasida o'ziga xos mastlik holatini keltirib chiqarish va bunga psixofiziologik bog'likdik (o'rganib qolish) tufayli uni notibbiy ravishda iste'mol qilish;

2. Ijtimoiy me'zon, ya'ni giyohvandlik vositalarning notibbiy ravishda iste'mol qilinishi aholi sogligini xavf ostiga qo'yadi va keng tarqalganligi sababli ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi;

3. Huquqiy me'zon yuqorida ko'rsatilgan ikkita mezon dan kelib chikdan holda vakolatli organ tomonidan muayyan vositaning giyohvandlik vositasi deb topilishi va uning giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilishi.

Yuqorida sanab o'tilgan me'zonlardan birining mavjud emasligi dori vositasi yoki kimyoviy moddani giyohvandlik (narkotik) vositasi deb topmaslik uchun asos bo'ladi. Adabiyotlarda giyohvandlik vositasiga bir xil ta'rif berilmaydi. Jumladan, M.M.Qodirov giyohvandlik vositasining to'rtinchi (jismoniy) alomati ham mavjud deb xisoblaydi va giyohvandlik vositalarini kelib

chikish tabiatiga ko'ra har xil vositalar (moddalar) deb ta'riflaydi¹. S.P.Didovskaya giyohvandlik vositalari tushunchasini ikkita mazmuniy va rasmiy huqukiy me'zonlar bilan belgilaydi. Mazmuniy me'zon nuqtai nazaridan, giyohvandlik vositalari - bu iste'mol qilinganida eyforiya holatini, muntazam iste'mol kilinganida esa - giyohvandlik vositasiga ruhiy va jismoniy bog'liklik (giyohvandlik)ni keltirib chiqarishga kodir bo'lgan, kelib chikishi sintetik yoki tabiiy bo'lgan moddalardir. Rasmiy huqukiy me'zon esa muayyan giyohvandlik vositalarining xalqaro huquqiy yoki davlatning me'yoriy xususiyatga ega bo'lgan ichki qonunlarida, rasmiy ro'yxatlarda ko'rsatilganligidan iboratdir. Yuqoridagi mezonlar mavjud bo'lmasa u yoki bu vositaning giyohvandlik vositasi deb topilishi mumkin emas. Mazmuniy me'zon - u yoki bu moddaning giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilishi uchun, rasmiy-huquqiy me'zon esa tadqiq etilayotgan sohadagi qonunlarni amalga oshiruvchi organlar uchun mo'ljal bo'lib xizmat qiladi².

Bir qator mualliflar³ "giyohvandlik vositasi" atamasi o'z mazmuniga ko'ra "giyohvandlik moddasi" tushunchasi bilan bir xil, shuning uchun ham "giyohvandlik moddalari" atamasini qonunda⁴ "giyohvandlik vositalari" atamasi bilan almashtirishning xojati yo'q edi, deb hisoblaydilar. Bu atamalarning "o'xshashligi"ni inkor etmagan holda, biz ushbu o'zgartirish mutlako to'g'ri bo'lgan deb hisoblaymiz, zotan "modda" tushunchasi giyohvandlik predmeti deb topilgan predmetlarga xam, xalqaro Konventsialarda keltirilgan ro'yxatlarga ham moe kelmaydi, chunki fakat moddalargina emas, suyuqliklar, o'simliklar yoki bu o'simliklarning kislari va dori-darmonlar ham giyohvandlik predmetini tashkil etishi mumkin. 1999 yilgi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Respublika qonunining nomida xam giyohvandlik vositalari, deb to'g'ri berilgan.

1 Kadirov M.M. Problemi ugolovno-pravovoy borbi s nezakonnim oborotom narkoticheskix sredstv. -T.: O'zbekiston, 1993. -S.247.

2 Ахмедов Г., Кадыров М. Наркомания. Преступность. Ответственность. -Т.: Узбекистан, 1989. -С.17; Круглянский В.Ф. Наркомании и токсикомании у подростков. Минск: Высшая школа. 1989.-С.5. "

3 Дидовская СП., Фесенко Е.В., Гарницкий СП. Наркомания (Уголовно-правовые и медицинские проблемы). - Киев: Выша школа, 1989. -С.69.

4 Указ Президиума Верховного Совета СССР «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты СССР» от 22 июня 1987 г. //Ведомости Верховного Совета СССР. 1987. -№25. -С.354.

"Vositalar" atamasi ashyolarning amalda mavjud bo'lgan holatini nisbatan aniq va to'liq ifodalaydi. Shuning uchun xam bu atamaning qonun tiliga kiritilishi juda asoslidir. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi JK 270-276 moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning predmeti haqida ran ketganida, "giyohvandlik vositasi" atamasini qo'llash to'g'riroq bo'ladi. Kriminologiya, psixologiya, pedagogikaga oid adabiyotlar (shu jumladan, ommaviy axborot vositalaridagi makolalar)da esa, giyohvandlik vositalariga nisbatan "giyohvandlik moddasi", "gangituvchi vosita", "af`yun" va boshka ma`no jihatidan o'xshash bo'lgan atamalar qo'llanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinishi lozim bulgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar Ro'yxatiga kiritiladi. Ular davlat tomonidan ko'riladigan nazorat choralaridan kelib chiqib, qo'yidagi ro'yxatlarga kiritiladi:

1. I ro'yxatga O'zbekiston Respublikasi da muomalada bo'lishi (ular O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yoki chikarilmaganidan kat'i nazar) O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari hamda Uzbekistan Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan takikdangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar kiradi;

2. 11 ro'yxatga O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi cheklangan va O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining xalkaro shartnomalariga muvofik nazorat choralari belgilangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar kiradi;

3. III ro'yxatga O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi cheklangan va O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining xalkaro shartnomalariga muvofiq ayrim nazorat choralari istisno etilishi mumkin bo'lgan psixotrop moddalar kiradi.

4. IV ro'yxatga O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi cheklangan prekursorlar kiradi.

Ushbu ro'yxat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish Davlat komissiyasi, Respublika Ichki ishlar vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan takdim etiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdikdanadi.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalarining muomalada bo'lishini nazorat qilish va ularning qonunga xilof ravishda ular bilan muomala qilganlik uchun javobgaollik belgilash majburiyatlari O'zbekistonning xalkaro-huquqiy majburiyatlaridan kelib chiqadi. Bugungi kunda Respublikamiz giyohvandlik vositalari to'g'risidagi BMTning 1961 yilgi YAgona Konventsiyasi va 1972 yilda unga kiritilgan o'zgartirishlar, giyohvandlik vositalarining qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi kurash to'g'risidagi BMTning 1988 yilgi Konventsiyasiga qo'shilgan.

"Giyohvandlik vositalari" umumiy yig'ma tushuncha xisoblanadi, ya'ni u sanoat usulida yoki ko'lda tayyorlanganligidan kat'i nazar turli ko'rinishdagi modda (substantsiya)ni va uning preparati (aralashmasi), bir yoki bir nechta giyohvandlik vositalari (va boshqa qo'shimchalar, shuningdek, dori-darmon shaklidagi) giyohvandlik vositalarni xam uz ichiga oladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida giyohvandlikning umumiy klinik tavsifi, kasallikning rivojlanish boskichlari va boshqalar bilan bog'lik sof tibbiy masalalarni batafsil yoritishning zarurati yo'q, deb uylaymiz.

Ammo giyohvandlikning asosiy alomatlarini bilmay turib, muammoni chuqur o'rganish xam mumkin emas. Chunki, bevosita profilaktika choralarini amalga oshiruvchi shaxslar (huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, pedagoglar) bu kasalliklarning biologik va klinik moyiyati hakida xech bo'lmasa minimal tasavvurga ega bo'lgan takdirdagina giyohvandlikka qarshi kurash izchil va samarali bo'lishi mumkin.

Maxsus adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, giyohvandlikning kasallik sifatida vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi uchta asosiy alomatlar: ruhiy bog'liklik, jismoniy bog'liqlik (buning asosiy kurinishi abstinativ

sindrom hisoblanadi) va o'zgargan tolerantlik (reaktivlik)ning paydo bo'lishi, kuchayishi va mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi .

Giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish ko'pgina hollarda o'ziga xos bo'lgan ruhiy xolat - eyforiyani keltirib chiqarish xususiyatiga egadir. Bunda shaxe kayfiyatining yaxshilangani, tetiklashgani, kuchiga kuch ko'shilganini his qiladi, o'zi cheksiz imkoniyatlarga egadek bo'lib tuyuladi. Ba'zan eyforiya xolatida shaxs engillik, o'ziga hos ruxiy muvozanatni his qiladi. Qator xollarda eyforiya sub`ektiv yokimli somatik-vegativ xislar bilan uygunlikda sodir bo'ladi (tanaga issiklik yoyiladi va h.k.), eyforiya holatining jadalliligi giyohvandlikning shakllanish tezligini belgilaydi. eyforiyaning xususiyati va kuchi giyohvandlik vositasining turi, sifati, dozasi, iste'mol qilish usuli, iste'molchi shaxsining "staji", o'ziga xos xususiyatlari¹ va h.k.ga oog'liq ouladi .

Giyohvandlik vositalari muntazam iste'mol kilinganida eyforiya holati kishi uchun extiyojga aylanadi, unda ruhiy bog'liqlik (ma`lum tuyg'uni yana xis qilish, shuningdek, ruhiy keskinliqtsan kutulish va o'zi uchun kulay ruhiy holatga kirish chaksadida giyohvandlik vositasini iste'mol qilishga bo'lgan ongli yoki ongsiz ehtiyoj) rivojlanadi.

Ruhiy bog'liklik butun ruhiy faoliyat soxasini qamrab oladi va har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, u giyohvandlik vositalari muntazam iste'mol kilingan barcha hollarda giyohvandlikning barcha shakllarida) vujudga keladi. Ikkinchidan, shaxsda giyohvandlik zositasiga noyob narsaga bo'lgani singari ijobiy munosabat mustahkamlanib boradi. Uchinchidan, bog'liqlik dastlab epizodik ravishda, keyinchalik esa mastlik holatini xis qilishga bo'lgan turg'un istak xoxishda ifodalanadi. To'rtinchidan, u shaxsning ruxiy (psixik) turmushi va boshqa shaxslar bilan munosabatlarini, shuningdek ijtimoiy yo'nalishini o'zgartiradi. Beshinchidan, ruhiy bog'liklik uzok vaqt mobaynida saklanib kolib, u giyohvandlik vositalaridan o'zini tiyishga bo'lgan urinishlar (remissiya

1 Пятницкая И.Н. Наркомания: Руководство для врачей. - М: Медицина, 1994. 39-212-бетлар. Наркология. С.Петербург: Невский Диалект, 1998. -С.79.

davrlari)dan so'ng shaxsning ularni iste'mol qilishga kaytishida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Shaxs giyohvandlik vositalarini muntazam iste'mol kila boshlaganidan so'ng ma'lum vaqt o'tgach, uning dozasini oshirishga ehtiyoj sezadi, chunki avvalgi doza (miqtsor) avvalgidek eyforiya va mastlik holati yoki boshka kutilgan samarani bermay ko'yadi (organizm zaxarli vositaning ta'siriga moslashadi va ko'nikadi, miyadagi "komfort zonalari"ning giyohvandlik vositasini sezuvchanlik darajasi pasayib boradi). Giyohvandlik vositalarining tobora oshib boruvchi dozalariga organizmning bunday moslashishi "o'zgargan reaktivlik sindromi", deb ataladi¹. Shuni qayd etish kerakki, giyohvandlik vositalarini iste'mol kila boshlagan ko'pgina giyohvandlar bunga istalgan vaqtda barxam berishim yoki o'zim xoxlagan paytda iste'mol qilishim mumkin, deb o'zlarini tinchlantiradilar. Biroq, amalda giyohvandlik vositalariga organizmning ko'nikishi hamda ular ta'sirining tobora pasayishi (tolerantlikning o'sishi) okibatida giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchi shaxe vaqti-vaqti bilan ularning dozasini oshirishga majbur bo'ladi².

Vaqt o'tishi bilan giyohvandlik vositalarini muntazam iste'mol qiluvchi shaxsda tolerantlikning o'sishi bilan birga bu vositalarga bog'likdikning yanada ogirroq shakli - jismoniy bog'liqlik vujudga keladi. Jismoniy bog'liqlik deganda, Butunjaxon sog'liqni saqlash tashkiloti(BST)ning ta'rifiga ko'ra, organizmning giyohvandlik vositalariga moslashuvi tushuniladi. Bunday hol tegishli vositalarning qabul kilinishi to'xtatilganida sodir bo'ladigan intensiv jismoniy kasalliklarda namoyon bo'ladi. "To'xtatish" sindromi yoki abstinativ sindrom deb ataladigan bu xastaliklar (bosh ogirishi, bezgak tutishi, ko'l-oyoklar suyagidagi kakshatuvchi ogrik) giyohvandlik vositasining moddalar almashinuvida ishtirok etishi va ushbu vosita organizmga kiritilmasa, organlarning bir me'yorda ishlay olmasligi tufayli vujudga keladi. Abstinativ sindrom giyohvandlik vositasi oxirgi marta qabul kilinganidan so'ng ma'lum

1 Дунаевский В.В., Стяжкин В.Д. Наркомании и таксикомании. -Л.: Медицина, 1991. -С. 107.

2 Бориневич В.В. Наркомания: Доклад исследовательской группш ВОЗ /Пер. с англ.-М.: Медицина, 1974. -

vaqt o'tgach paydo bo'ladi. Abstinativ sindrom rivojlanganida giyohvandlik vositalariga extiyoj eyforiya xolatiga tushish maqsadida emas, balki ogrik va azob-ukubatlardan kutulish maqsadida tugiladi. Shuning uchun ham giyohvand o'zini bu azob-uqubatlardan xalos etadigan giyohvandlik vositasini topish uchun har qanday ishga, jumladan jinoyatga ham qo'l uradi.

Giyohvandlikning so'nggi boskichi, odatda, shaxsning axlokiy va ma'naviy tanazzuli (yuktimoiy dekompensatsiya, oiladagi munosabatlarning buzilishi, jamiyat va qonunda belgilangan qoidalarga rioya kilmaslik) hisoblanadi. Shaxsda bunday tanazzul alkogolli ichimliklarni suiiste'mol qilishdan 15-20 baravar tezrok vujudga keladi⁴⁴.

Yuqorida aytilganlardai giyohvandlik - kasallikdir degan yagona xulosa qilish mumkin, bizning nazarimizda, bu fikrga ko'shilmaslik uchun hech qanday asos yo'q. Zotan, giyohvandlikning ko'rinishlari hamda unga duchor bulgan kishilarning xulq-atvoridagi biologik o'zgarishlarni faqat mutaxassislar, ya'ni shifokorlargina aniqlashlari mumkin. Shu sababdan ushbu muammoga doir adabiyotlarda "giyohvandlikka qarshi kurash" iborasining qo'llanishi unchalik to'g'ri emas. Modomiki, giehvandlik bu kasallik ekan, unga qarshi kurashish emas, balki uni davolash lozim. Shuning uchun ham "narkotizmga qarshi kurash", "giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash", "giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatchilikka qarshi kurash" iboralarini ko'llash to'g'riroq bo'ladi¹.

Binobarin, tibbiy tekshirish natijalariga ko'ra "giyohvandlik" tashxisi qo'yilgan shaxs giyohvand hisoblanadi. Bu O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonunvda bevosita ko'rsatib o'tilgan. Shuning uchun giyohvandlik vositalarini bir marta iste'mol kilgan yoki ora-sira iste'mol qiladigan, xali ularga bog'liklik shakllanmagan shaxslarni giyohvandlar deb atash to'g'ri bo'lmaydi. Ularga nisbatan "giyohvandlik vositalarini iste'mol qiladigan shaxslar", "shaxslarning

1 Миньковский Г.М., Побегайло Э.Ф., Ревин В.П. Уголовно-правовые средства борьбы с наркотизмом в России. - М.: Академия МВД России, 1994.-С.6-7. 4Ъ Бабаян Э.А. Внимание: наркомания.-М.: Медицина, 1988. -131 с.

giyohvandlik vositalarini sinash uchun yoki vaqti-vaqti bilan iste'mol qilishi", "giyohvandlik vositalari iste'mol qiladigan yoki narkotik mastlik holatida bo'lgan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishi" degan iboralarning qo'llanishi to'g'riroq bo'ladi.

Shuni kaid etish kerakki, giyohvandlik vositalari singari garant qiluvchi, tafakkurni susaytiruvchi ta'sirga ega bo'lgan kimyoviy, biologik moddalar va dori-larmonlar juda ko'p, biroq ular xar xil sabablarga ko'ra (ijtimoiy xavflilik larajasining pastligi, organizmning ularga bog'lanib qolmasligi va h.k. sababli) giyohvandlik vositalari jumlasiga kiritilmagan. Giyohvandlik vositalari jumlasiga kiritilmagan moddalar (bir kator analgetiklar, maishiy kimyo vositalari va h.k.)ni suiiste'mol qilish zaxarvandlik - toksikomaniya deb ataladi. Ko'pincha toksikomaniyada xam giyohvandlikdagi singari bog'likdik va o'zgargan reaktivlik ko'rinishlari namoyon buladi, biroq ularning ifodalanish darajasi nisbatan pastrokdir. Shunga qaramay, bu moddalarning iste'mol qilinishi okibatida giyo'xvandlikdagidan kam bo'lmagan shaxsning ruxiy va jismoniy buzilishiga olib keladi¹. Shu boisdan xam zaxarvandlik moddalari (toksikantlar)ning bir kismi ma'lum vaqtdan so'ng giyohvandlik vositalarining rasmiy ro'yxatiga kiritilishi mumkin, deb o'ylaymiz.

Giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish tufayli vujudga keladigan - narkotik mastlik, zaxarvandlik moddalarining ta'siri esa -zaharli mastlik deb ataladi. Agar gangitish maqsadida (giyohvandlik vositalari jumlasiga kiritilmagan) tibbiy preparatlar ko'llansa, dori-darmonlarni iste'mol qilish natijasidagi mastlik hakida ran boradi.

Mualliflarning giyohvandlik tushunchasining tibbiy va ijtimoiy-huquqiy jihatlarini farklash zarurligi hakidagi fikrlariga ko'shilgan holda, "giyohvandlik" ztamasi jinoyat-huquqiy ma'noda giyohvandlik vositalari bilan bog'liq g'ayriqonunky xatti-harakatlar umumiy tushunchasini ifodalash uchun qo'llaniladi deb hisoblaymiz. Shu bois biz giyohvandlik tushunchasiga

1 Вальдман А.В., Бабаян Э.А., Звартау Э.Э. Психофармакологические и медико-правовые аспекты токсикомании. - М: Медицина, 1988. -С.228. 4К Пятницкая И.Н. Клиническая наркология. -С.332.

K.SH.Kurmanov bergan quyidagi ta'rifga kushilamiz: «Giyohvandlik - odamlar sog'lig'iga shikaet etkazishga qaratilgan o'z gayrihuquqiy, gayriijtimoiy niyatlarini amalga oshirish makeadida qonunda belgilab ko'yilgan giyohvandlik vositalari bilan bogliq ijtimoiy xavfli jinoiy qilmishlar eodiretish»¹

1.2. Giyohvandlikka qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy muammolari.

Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshiruvchi asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda jahon mamlakatlarida jinoyatchilikning shakllari va unga qarshi kurash olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar soni oshib borayotganligi hammamizga ma'lum.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi mazkur organlar o'rtasida erishilgan eng ilg'or tajribalarni ommalashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyati muvofiqlashtirilishi natijasida mazkur salbiy illatga qarshi kurash olib borish usullari takomillashtirilishiga erishiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashni muvofiqlashtirish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish bo'yicha, kriminogen jihatdan nosog'lom hududlarni o'z vaqtida aniqlashi, qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash borasidagi holatlarni bartaraf etishga imkon beruvchi chuqur tahliliy ishni tashkil qilishga alohida ahamiyat berib, zarur choralarni ko'rishlari taqozo etiladi.

Giyohvandlikka qarshi kurash borasida mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar natijasida yildan-yilga bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Birinchi navbatda, ushbu masalaga davlat miqiyosida katta e'tibor

¹ Qarang: Курманов К.Ш. Наркомания: уголовно-правовые и криминологические проблемы. - Фрунзе, 1989.- С. 74.

qaratilganini, narkomaniyaga qarshi kurashning mustahkam huquqiy bazasi yaratilganini, xavf-xatarni bartaraf etish maqsadida keng jamoatchilikning faolligiga tayanilayotganini alohida e'tirof etish zarur. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ushbu illatga qarshi kurash chora-tadbirlari bir necha bor kuchaytirildi.

Avval boshdanoq YUrtboshimiz Islom Karimov tomonidan «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida giyohvandlik va narkobiznesga qarshi kurashning mamlakatimiz barqarorligini saqlashdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan edi. O'tgan yillar davomida narkobiznesga qarshi olib borilgan ishlar mamlakatimizda giyohvandlikning oldini olish, psixotrop vositalar oldi-sotdisini bartaraf etish samaradorligining oshishiga olib keldi.

Respublikamiz mustakillikka erishgandan so'ng giyohvandlikka qarshi kurash kuchaydi, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. O'zbekistonning bu yunalishdagi asosiy tanlagan yo'li transmilliy uyushgan jinoiy guruhlar narkotik vositalarni kontrabanda qilish uchun respublika hududidan foydalanishining oldini olish, giyohvandlik vositalarining qonuniy muomalasi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish samaradorligini ta'minlash, giyohvandlikka chalingan bemorlarga kafolatli tibbiy yordam ko'rsatish, shuningdek, bu sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Giyohvandlik vositalari tyg'risida»gi (1961 yil) yagona Konventsiya, «Psixotrop moddalar tyg'risida»gi (1971 yil), BMTning «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qarshi ku-rashish» bo'yicha (1988 yil) Konventsiyalari ishtirokchisidir.

Ta'kidlash joizki, Respublikamizda 1994 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining Narkotik moddalarni nazorat qilish Davlat komissiyasi faoliyat ko'rsatmokda.

O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonun 2000 yil yanvaridan amalga kiritilishi bilan inson aql idrokiga ta'sir etuvchi moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslarga nisbatan

munosabat o'zgarib, insoniylik tamoyillari kuchaytirildi. Giyohvandlikka chalingan bemorlarga asosan tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilmoqda. Ushbu qonun bilan giyohvandlikka qarshi kurashda bu illatning profilaktikasini ta'minlash choralari belgilandi. Qonunda butun davlat va jamoat tashkilotlarining giyohvandlikka qarshi kurashishi majburiyligi belgilanishi bilan birga, narkotik moddalarni propaganda qilish mutlaqo taqiqlandi. Shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan narkotik moddalardan tibbiy yo'sinda foydalanish tartibi belgilab berilgan.

Jinoyat kodeksida giyohvandlik vositasining noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilangan. Jinoyat qonunchiligida bu jinoyatlarga, ayniksa, voyaga etmaganlarni jalb qilishiga alohida hol deb qaraladi. Ayrim huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik o'rnatilgan. Jinoyat qonunchiligidan tashqari yana bir qator qonunlarimiz ham giyohvandlikka qarshi qaratilgandir.

Bulardan tashqari, respublikamiz qonunlarida salbiy illatlar, gayriqonuniy ishlar va jamoat uchun xavfli harakatlarga qarshi tarbiyaviy vositalarni qo'llash kabi tadbirlar belgilangan.

Narkomaniyaga qarshi kurash qonunchilikni va huquq-tartibotni mustakkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muxofaza qilishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Narkomaniya nima? U kachon paydo bulgan? Degan savol tug'iladi. Bu so'z yunoncha "*narcosis*"- uyqu, karaxtlik va "*mania*" - telbalikka moyillik (o'rganish) degan ma'noni anglatadi. Yanada keng ma'noda giyohvandlik inson organizmining tarkibida narkotik moddalar bo'lgan morfin, afyun, nasha, kokain, heroin, kodein, veronal, opium, gashish yoki yangi kashf etilgan sintetik narkotik yoki psixotrop moddalarga va boshqalarga o'rganib qolishidir.

Narkotik moddalar odam organizmiga asosan markaziy nerv sistemasi orqali ta'sir etadi. Dastlabki paytda u xursandchilik, vaqtichog'lik, xotirjamlikka o'xshash his paydo qiladi. Bu «yolg'onchi his»lardan o'zini tiyolmagan kishi irodasizligi oqibatida yana shu moddalarni iste'mol qilishga o'rganib qoladi, oqibatda nerv-psixik va nerv-somatik kasalliklarga chalinadi. Bunday shaxs

kayfiyati o'zgaruvchan qimsaga aylanadi, xotirasi va ish qobiliyati keskin pasayadi, kundan- kunga oriqlab boradi. Organizmda modda almashinuvi o'zgaradi, ichki organlarning normal holati buziladi.

Narkotik moddalar bosh miya katta yarim sharlarida umumiy tormozlanishni keltirib chiqaradi. Natijada miya pusti ostidagi nerv markazlari yarim sharlar tomonidan tormozlanishning doimiy nazoratidan holi bo'lib qoladi. Narkoman organizmi juda oz fursatda, aniqroq aytganda, bir necha haftadayoq narkotik moddasiz turolmay qoladi, unga borgan sari ehtiyoj oshib, dorining ta'sir kuchi kamayib boradi. Uning hayotga bo'lgan qizikishi so'nadi, insoniy fazilat va qobiliyatlardan mahrum bo'ladi.

Narkomaniya inson organizmini tanazzulga etaklovchi og'ir kasallik hisoblanib, bu dardga chalinishning asosan ikki faktori isbotlangan. *Birinchisi*, kishi o'z xohishidan tashqari, e'tiborsizligi natijasida narkotik moddalarga «xumor»i kuchayib, bangilik ko'pincha vrach buyurgan narkotik moddalarni noto'g'ri iste'mol qilish natijasida boshlanadi.

Ular bu kasallik oqibatida kelib chiqadigan og'riq, uyqusizlikdan qutulish maqsadida o'zboshimchalik bilan narkotik moddalar dozasini oshiradilar. Natijada bunday bemorlar «bangi»ga aylanadilar.

Ikkinchisi, kishilarning ongli ravishda, kayf qilish maqsadida narkotik moddalarga o'rganishidir.

Narkomaniyaga, odatda, ruxan zaif, irodasi bo'sh, birovlariga taqdid qilishga moyil, o'ta xudbin kishilar beriluvchan bo'ladi. Bunday shaxslar o'z moyilliklariga qarshi kurasholmaydilar. Bora-bora organizmdagi moyillik «mutlaq g'olib»ga aylanadi. Avval tajanglik, kayfiyat buzuvchiligi, xotira susayishi kabi ruhiy o'zgarishlar, keyinchalik terlash, yurakning notekis urishi, tanglayning quruqshashi, ozish, qo'l-oyoqda titroq paydo bo'lishi, rang siniqishi, ko'z qorachig'ining kengayishi kabi jismoniy o'zgarishlar ro'y beradi. Bangilik odamni majruh qilib qo'yadi.

Endi u navbatdagi kayfni surish uchun har qanday pastkashlikdan toymaydi. Sotqinlik, aldash, o'g'rilik uning kundalik yumushiga aylanadi. Ma'lum vaqt

o'tgach, narkotik doza bangi organizmiga «hokim»lik qila boshlaydi. Bu davrda narkotik modda dozasiining ozgina oshirilishi bemorning o'limiga sabab bo'lishi mumkin. Qattiq nazorat ostida davolanilmasa, narkomanning hayoti xavf ostida qoladi.

Tibbiy tekshirishlar shuni tasdikdaydiki, nasha chekuvchilarning nafas yo'llari kasallanib, o'pka sklerozi boshlanadi, miya to'qimalari, jigari ishdan chiqadi.

Narkomaniyaning genofondga, inson pushtiga salbiy ta'siri haqida meditsinada ishonchli ma'lumotlar bor. Ayniqsa, homiladorlik paytida, bolani emizish davrlarida narkotik modda iste'mol qilish bolaning o'limiga sabab bo'ladi yoki bir umrga majruh kishiga aylantiradi.

Ma'lumki, giyohvandlikning ijtimoiy xavflilik tomonlarini etarli baholay olmaslik, bu muammoni keng jamoatchilikni jalb qilmasdan alohida, asosan huquqiy choralar bilan hal qilishga urinish muvaffaqiyatga olib kelmaydi. Shu o'rinda giyohvandlikning tarqalishiga qarshi turish, giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilarni aniqlash, bunday jinoyatlarni fosh etish bilan birga, uning tashkilotchilari, bunday vositalarni tayyorlovchilar va tarqatish bilan shug'ullanuvchilarni aniqlashda keng jamoatchilikning o'rni katta.

Narkotik moddalar tayyorlash, saqlash, sotish, uni iste'mol qilish va qonunga xilof ravishda nopok ishga qo'l urganlik uchun qonunlarimizda jinoiy javobgarlik belgilanganligi bejiz emas.

Narkomaniya inson hayotiga qachon, qaerdan kirib kelgan, degan savolga olimlar, sotsiolog-tadqiqotchilar ko' vaqtlardan beri javob axtaradilar.

Amerikalik olim Uilyam Batler eldrij narkotik moddalar meloddan avvalgi ettinchi asrdan buyon tabobatda davolash maqsadida qo'llanilganini ta'kidlagan. Uning yozishicha, qadim zamonlardayok Kichik Osiyo mamlakatlari aholisi tarkibida narkotik modda bo'lgan nasha o'simligining xususiyatlari haqida yaxshi bilgan. So'ngra bu og'y asta-sekin Hindistonga tarqalgan. eldrij qadimgi Xitoyga ham bu modda arab savdogarlari tomonidan taxminan IX asrlarda keltirilgan, deb ko'rsatadi.

Hozirgi paytda, Rossiyada, Evropada eng ko'p tarqalgan narkotik moddalardan biri heroin hisoblanadi.

Narkotik moddalar uglevodorodlar, ularning galogen xosilalari, spirtlar, efirlar, shuningdek, tsiklopropanazot (I) oksidi kabi ba'zi anorganik birikmalardan iborat.

Narkotik moddalarning keng tarqalganlaridan biri opiy (opium) deb ataladi. U kuknori o'simligining pishib etilgan g'unchasi yonlarini yupqa kesish orqali olinadigan shiradan to'planadi. Ko'knoridan olinadigan opiylar turiga kiradigan yana bir narkotik modda geroindir.

Keng tarqalgan narkotik moddalardan yana biri morfiy deb ataladi. Morfiy afyunning asosiy alkaloididir. U afyundan kimyoviy yo'l bilan ajratib olinadi. Morfiy og'riq qoldiruvchi kuchli narkotik moddalar turkumiga kiradi. U tabobatda, asosan, markaziy nerv sistemasiga ta'sir qilish kerak bo'lganda qo'llanilib, og'riq sezgisini kamaytirish, nafas, yo'tal va qusish markazlari faoliyatini susaytirish, ko'zni harakatlantiruvchi nervlar markazini qo'zg'atish lozim bo'lgan paytda, kam miqdorda va ehtiyotkorlik bilan qo'llaniladi.

Ta'kidlash lozimki, yoshlar tarbiyasi sohasidagi muammolarni qanchalik tez hal qila olsak, bu illatga qarshi samarali kurasha olamiz. Buning uchun har bir kishida ijtimoiy burch tuyg'usini tarbiyalash kerak. Bundan tashqari, bugun barcha illatlarga qarshi ayovsiz kurash ketayotganda jazolashni asosiy «chora deb qaramasdan, profilaktika, ya'ni illatlarning oldini olishga ko'proq e'tibor bermoq zarur. Har bir sud hukmini tarbiya borasidagi katta bir nukson deb qaramoq kerak. Faqat shundagina «menga nima» degan loqaydlik kasalidan qutilamiz. Jamiyatimizdagi har bir muvaffaqiyatga, har bir salbiy hodisaga barcha birdek javobgardir.

SHu o'rinda bir mulohaza tug'giladi. Ba'zi bir odamlar giyohvandlikka qarshi kurash «huquqni muhofaza qilish organlarining vazifasi deb tushunadi. Vazifa-ku, vazifa bo'lib qoladi. Davlatimiz tomonidan narkomaniyaga qarshi kurashishga oid topshiriqlar bundan keyin ham ushbu organlar tomonidan aniq va birday bajarilishiga shubha yo'q. Lekin keng jamoatchilik, yoshidan, millatidan,

ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, bir fikrni yaxshi anglab olishi shart. Insonlar «farzandim narkotik moddalar savdosi bilan shug'ullanmasa, uni iste'mol qilmasa bas, bu balo menga va yaqinlarimga xavf sololmaydi» deb uylasa, katta xatoga yo'l qo'yadi. Chunki, farzandlar har qancha yaxshi tarbiyalanmasin, barkamol bo'lmasin, maktab-kollejdami, mahalladami, kafe-barlardami yoki ish joyidami shu illatga chalinganlar uni ham narkomaniya domiga tortishi hech gap emas.

O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonunning 44-moddasiga asosan davlat giyohvandlik va zaxarvandlik bilan kasallangan bemorlarga ularni tekshiruvdan o'tkazish, maslahat berish, tashxis qo'yish, davolash va tibbiy-ijtimoiy tiklashdan iborat narkologik yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Giyohvandlik va zaxarvandlik bilan kasallangan bemorlarga narkologik yordam ularning iltimosiga ko'ra yoki ularning roziligi bilan, yoshi o'n to'rtga to'lmagan voyaga etmaganlarga esa, ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillarining iltimosi yoxud roziligiga asosan ko'rsatiladi.

Davolanish kursini o'tash uchun narkologiya muassasasiga ixtiyoriy ravishda murojaat etgan giyohvandlik va zaxarvandlik bilan kasallangan bemorlarning iltimosiga ko'ra, davolanishning sir saqlanishi ta'minlanadi.

Giyohvandlik va zaxarvandlik bilan kasallangan bemorlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sudning qarori bilan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining narkotiklar va jinoyatchilik boshqarmasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2008 yilda dunyo bo'yicha «opiy» ishlab chiqarish eng yuqori darajaga etgan.

Tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan ekinlarni etishtirish bilan Afg'onistonda 3,3 milliondan ortiq odam shug'ullanmoqda, bu umumiy aholi sonining 14,3 foizini tashkil etadi. Opiy ishlab chiqarish mamlakat ichki maxsulot ishlab chiqarish hajmining 53 foizini tashkil etadi, ya'ni dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan opiyning 93 foizi Afg'onistonga to'g'ri keladi. Afg'onistonda tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan «kuknor» o'simligi eqiladigan

provintsiyalar soni 6 tadan 13 taga etgan. Afg'onistonning Pokiston bilan chegaradosh 5 ta provintsiyasida jami etishtirilgan «kuknor»ning 70 foizga yaqini etishtirilgan bo'lsa, uning 53 foizi birgina Hilmon provintsiyasiga to'g'ri kelmoqda.

Agar 2001 yilda bu o'simlik eqiladigan maydonlar hajmi 8 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda 193 ming gektarni tashkil etgan. O'z navbatida, opiy ishlab chiqarish hajmi ham ko'payib, 2001 yilda 200 tonnani, 2008 yilda esa 8300 tonnani tashkil etgan.

Dunyo bo'yicha narkovaziyat yomonlashuvining asosiy sabablaridan biri, bir tomondan, Afg'onistonda o'ta katta miqdordagi narkotik moddalarning etishtirilishi bo'lsa, ikkinchi tomondan ularni noqonuniy ravishda «Bolkon» (Eron, Pokiston va Turkiya davlatlari) va «SHimoliy» (Markaziy Osiyo davlatlari) yo'nalishlar orqali MDH va Evropa davlatlariga etkazib berilayotganligidir.

Afg'on heroini va opiy moddalarining Markaziy Osiyo davlatlari orqali tranzit holatda o'tishi, narkotik moddalarni etkazish imkonini beruvchi transport tarmog'ining mavjudligi - MDH va Evropa davlatlarida narkotik moddalar «qora bozori»ning ko'payishiga hamda kriminogen holatning yomonlashishiga olib kelmoqda.

Respublika hukumati tomonidan giyohvandlik tarqalishining oldini olish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikka katta e'tibor berib, bu sohada ilg'or xorij tajribasidan foydalanish, qonunlarimizni yanada takomillashtirish bo'yicha qator ijobiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda narkotik moddalarni nazorat qilish, ularning noqonuniy aylanishi va giyohvandlikka qarshi kurashish sohasida xalqaro majburiyatlarning bajarilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, giyohvandlik vositalarining qo'shni davlatlardan kontrabanda qilinishining oldini olish uchun davlat chegaralarini mustahkamlashga qaratilgan barcha choralar ko'rilmoqda, bojxona postlarining moddiy-texnika bazasi mustakkamlanib, ular hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan texnika vositalari bilan jihozlanmoqda.

YUqoridagi ma`lumotlardan ham ko`rinib turibdiki, asr vabosi nomini olgan ushbu illat mamlakatimizning ayrim yoshlari salomatligi va hayotiga, ularning kelajagiga, millat genofondiga jiddiy xavf solmoqda. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan qo`shni davlatlardan kirib kelayotgan, yoshlarimizni o`z turiga ilintirishi mumkin bo`lgan giyohvandlik va narkobiznes balosini bartaraf etish, oldini olish maqsadida barcha chora-tadbirlar qo`llanilmoqda. Giyohvandlikka qarshi kurash borasidagi ishlar bundan keyin ham izchil va tizimli ravishda olib borilishiga hech qanday shubha yo`q. Giyohvandlikka qarshi kurashish, ularning zararli oqibatlaridan kishilarni xabardor qilish, targ`ibot-tashviquot ishlarini olib borish doimiy va muhim faoliyat turlaridan biridir. Chunki asr vabosi - giyohvandlikka chalingan kimsalar oilasining tinchi buzilayotgani, farzandlarining qarovsiz qolayotgani, o`zlari esa salomatligini yo`qrtib, bevaqt o`lim topayotgani hech kimga sir emas.

2-BOB. GIYOHVANDLIK JINOYATLARINI OLDINI OLISH MUAMMOLARI.

2.1. Giyohvandlikni oldini olish sub`ektlari va ularning vazifalari

Aholi orasida giyohvandlik darajasining jadal suratlarda ortishi, giyohvandlik ositalarining noqonunii ravishda muomalaga kiritilishi dolzarb muammo hisoblanib jamiyatning ijtimoiy-ma`naviy asoslariga, mamlakat iktisodiyotiga va xuquqiy gartibotga salbiy ta`sirini o`tkazadi. Shu sababli giyohvandlik muammosini bartaraf etish uni oldini olishning samarali va munosib choralarini ishlab chiqishni talab etadi. Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha davlat siyosati ularni tarqalishining kompleks profilaktikasiga karatilishi va tarbiyaviy va majburlov yaoralarini uygunlikda ko'llash, ma`rifiy, davolash-reabilitatsiya qilish va huquqni muhofaza qilish chora-tadbirlarini muvofiqlashtirgan holda o`tkazish tamoyillariga amal qilish asosida millatning ma`naviy soglomligini saqqash bo'yicha faoliyat bilan uzviy bog'liklikda o`tkazilishi lozim.

Bizningcha, bu kuyidagi printsiplar asosida tuzilishi kerak:

-giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar muomalasi bilan bog'liq faoliyatning asosiy turlariga nisbatan davlat monopoliyasi;

-giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar muomalasi bilan bog'liq barcha faoliyat turlarini litsenziyalash;

-ijro xokimiyatining markaziy organi bilan ijro xokimiyatining mahalliy organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, bu tizimga kirmaydigan huquqni muxofaza qiluvchi idoralar va tegishli vakolatga ega bo'lgan boshka organlar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatlarini muvofiklashtirish;

-giyohvandlikka qarshi karatilgan targ'ibotda giyohvandlikning va giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning moddalarning noqonunii muomalasi bilan bog'liq huquqbuzarliklarni oldini olish choralariga ustuvorlik berilishi hamda bunday faoliyatning jonlantirilishi;

-giyo'xvandlikka chalingan shaxslarni davolash va giyohvandlikni oldini olish usularini ishlab chikish soxasidagi ilmiy tadqiqotlarning davlat tomonidan ko'llab kuvvatlanishi;

-giyohvandlik va giyohvandlik vositalari tarqalishining oldini olish jarayoniga nodavlat tashkilotlari va fuqarolarni jalb qilish, giyohvandlikka chalingan shaxslarning ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiyasini amalga oshiruvchi muassasalar tarmogini rivojlantirish;

-giyohvandlikning, shuningdek giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning noqonunii muomalasi olidini olish soxasida kuptomonlama va ikki tomonlama xalkaro xamkorlikni rivojlantirish.

Giyohvandlikka oid davlat siyosatining o'zagini ijtimoiy, huquqiy, kriminologik, tibbiy, siyosiy, iktisodiy, ekologik, tashkiliy, xalkaro xarakterdagi giyohvandlikning va giyohvandlik vositalari noqonunii muomalasining oldini olishga karatilgan kompleks choralar tashkil qiladi. Qayd kilingan jixatlar o'zaro aloqador bo'lib bir-biriga ko'shilgan holda birgalikda giyohvandlikni oldini olish choralari tizimini tashkil qiladi.

Giyohvandlikni oldini olish choralari tizimida ijtimoiy jixatlar asosiy, eng muxim va serkirra jixat bo'lib xisoblanadi. U giyohvandlikning oldini olish bo'yicha davlat organlari va muassasalari, jamoat tashkilotlari tomonidan umumiy va yakka tartibda amalga oshiriladigan turli xil faoliyatni uz ichiga oladi. Ular katoriga kuyidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaviy; giyohvandlarga nisbatan davolash-reabilitatsiya qilish va ijtimoiy-reabilitatsiya qilish choralari, giyohvandlikka qarshi tashviqotning profilaktik choralari: aholining ma'naviy sog'lomligini saqlashga karatilgan va ijtimoiy-ruhiy inqirozning profilaktik chora-tadbirlari; giyohvandlikning oldini olishga karatilgan tegishli dasturlarning boskichma-bosqich ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi. e. Gasanovning fikricha, giyohvandlikni oldini olishning huquqiy jihati qonunlarda, boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan giyohvandlik vositalari bilan bog'lik bo'lgan noqonuniy xarakatlarni man etuvchi va bu >-chun yuridik javobgarlikni belgilovchi, giyohvandlik bilan kasalanganligi oqibatida yoki giyohvandlik vositalarini

iste'mol qilish bilan paydo bo'ladigan yoki giyohvandlikdan majburiy davolanishni ta'minlaydigan xuquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning majmuasini namoyon etadi.

Giyohvandlikni oldini olishning ijtimoiy va huqukiy jihatlari kriminologik jihatlar bilan bogliq. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar darajasi holati, tuzilishi va dinamikasini o'rganish, taxlil qilish va umumlashtirish; giyohvandlikka qarshi kurash sohasida huquqiy ongni mustaxkamlash va rivojlantirishga imkon beruvchi, ularning kelajakda amalga oshirilishini taqazo qiluvchi o'ziga xos kriminogen xolatlarni aniqlash; giyohvandlik vositalari bilan bog'liq bo'lgan xuqukbuzarliklarni sodir etishda aybdor bo'lganlarning tipologiyasini aniqlash va qayd qilish, ularning oldini olish bo'yicha choralarni ishlab chiqi. Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq noqonuniy harakatlarning oldini olish va to'xtatish bo'yicha faol choralar majmuasi giyohvandlikning va giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasining tarqalishi oldini olishning muhim vositasi sifatida ko'rilishi lozim.

Fikrimizcha, quyidagilar giyohvandlikni oldini olishning ustuvor choralari sifatida kayd etilishi lozim.

- tashkiliy-huqukiy chora-tadbirlar;
- giyohvandlik vositalarini su'istemol qilishning profilaktikasi;
- giyohvandlik vositalarini notibbiy maqsadlarda iste'mol qiluvchi shaxslarni rehabilitatsiya qilish va mehnatga layoqatini tiklash, davolash;
- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning prekursorlarini ishlab chiqarish va tarqatish ustidan kat'iy nazoratni ta'minlash;
- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning prekursorlari noqonuniy muomalasining oldini olish.

Giyohvandlik tarqalishining, giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasining xakikiy ko'lamini aniqlash giyohvandlik darajasi, uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning tarkibi va dinamikasi bo'yicha kompleks tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi.

Bizningcha giyohvandlikning oldini olish muammosini ijobiy xal etishda bu borada umumdavlat daturining qabul kilinishi maqsadga muvofik bo'ladi. Ushbu dastur kuyidagi choralarni nazarda tutishi lozim:

- barcha ta'lim muassasalarida yagona, bosqichli giyohvandlikka qarshi majburiy tarbiyaning joriy kilinishi;

- bog'cha, maktabgacha tarbiya va umumta'lim muassasalari yon atrofida spitrli ichimliklarni savdosini ta'kiklash, 21 yoshga to'lmagan shaxslarga spirtli ichimliklarni sotilishini man etish;

- giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasiga qarshi kurashni samarali kurashni tashkil etish uchun tegishli huquqni muxofaza qiluvchi organlarda odimlarning shtatlar sonini ko'paytirish;

- O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi huzurida huquqni muhofaza qiluvchi :?ganlarning giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasiga qarshi kurash bilan ^ug'ullanuvchi bo'limlari xodimlari malakasini oshirish bo'yicha idoralararo markazni tashkil etish;

- umumta'lim maktablari uchun "Sog'lom hayot tarzi" o'kuv dasturini ishlab chiqish;

- bolalar va o'spirinlarga ijtimoiy yordamni tashkil qilish;

- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yoshlarning ishga joylashishi uchun majburiy kvotalarni joriy qilish;

Dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, uning samaradorligi kriminologik rejalashtirishning metodik talablari bajarilishi bilan bog'liq,. Dastur giyohvandlikni oldini olishning ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, tarbiyaviy va kriminologii choralarining uygun tizimini, vaqti va joyiga karab amalga oshiriladigan tadbirlarni, jumbokli masalalarni xal qilish vositalari va kuchlarini uz ichiga olishi lozim. Dasturning ishlab chiqilishi va amalga tatbik etilishi giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilar sonini kamaytirishga imkon beradi, rehabilitatsiya va davolash tadbirlarning samaradorligini yaxshilaydi.

Giyohvandlikni oldini olish bo'yicha xorij tajribasini tadmik qilish giyohvandlik bilan bogliq vaziyatning murakkablashuvi sharoitida giyohvandlik

bilan bog'lik muammolarni xal etishda hokimiyatning maxalliy organlari va o'z-o'zini boshqarish organlarining roli ortib boradi. Ular o'z vakolatlari doirasida giyohvandlikning oldini olish faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy xujjatlar ishlab chiqishlari; o'z xududlarida davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan utkaziladigan profilaktik chora-tadbirlarda qonunlarga rioya kilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishlari; giyohvandlikni oldini olishga aloqador turli tuzilmalar o'rtasida aloqalarni tashkil etib ularning faoliyatini muvofiqlashtirishi lozim.

Giyohvandlikni oldini olish tizimining tarkibiy kismi sifatida xududiy markazlar tashkil etilishi lozim. Quyidagilar ular faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil etishi kerak:

- yoshlar va voyaga etmaganlar o'rtasida giyohvandlik profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan bolalar, o'smirlar va yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalarini suiste'mol qilishning va uning noqonuniy muomalasining olidini olish;

- bolalar va o'smirlar o'rtasida giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni suiste'mol qilish va ularning noqonuniy muomalasini oldini olish tizimining ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash;

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni suiste'mol qilish va ularning noqonuniy muomalasining oldini olish bo'yicha ijtimoiy siyosatni shakllantirish;

Markazning faoliyati predmeti bo'lib kuyidagilar xisoblanishi lozim:

1. mamlakatda giyohvandlik bilan bog'liq vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha giyohvandlikni oldini olish bo'yicha umumdavlat dasturiga kiritish uchun turli ko'rinishdagi muassasalar va tashkilotlarning davolash va profilaktik dasturlarini

saralash;

2. zimmasiga giyohvandlikning oldini olish majburiyati yuklangan barcha tashkilotlar va muassasalar faoliyati ustidan nazoratni tashkil qilish;

3. giyohvandlikning oldini olish bo'yicha dasturlarni amalga oshirishda turli tashkilotlar va muassasalarning ishtiroki darajalarini belgilash;

4. ustuvor yo'nalishlarga muvofiq ravishda moliyaviy va mulkiy vositalarni taksimlash;

5. umumdavlat mikiyosida o'smirlar va yoshlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish:

- yoshlarning dam olish maskanlari, yashash joylari bo'yicha faoliyatni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy profilaktika va reabilitatsiya tizimlarini tashkil qilish;

- giyohvandlikka muhtalo bo'lgan yoshlar uchun reabilitatsiya markazlarida kunduzgi o'lish joylarini tashkil qilish;

- giyohvandlikdan davolanib chikkan yoshlar va voyaga etmaganlar uchun mexnat ta'limi va ish joylarini tashkil qilish;

- qonunda belgilangan tartibda ko'riklar, konkurslar, ko'rgazmalar, seminarlar, konferentsiyalar, kongresslar, simpoziumlar va boshka tadbirlarni tashkil qilish, tayyorlash va o'tkazish;

- giyohvandlikning oldini olish doirasida yoshlar va o'smirlar bilan ishlash faoliyati uchun mutaxassislar tayyorlash.

6. giyohvandlikni oldini olish soxasidagi faoliyatning axborot ta'minotini tashkil etish:

- giyohvandlarni davolash va giyohvandlikning oldini olish sohasida davlat va nodavlat xizmatlari faoliyati hakida axborotlarni yigish va kayta ishlash;

- giyohvandlikka muhtalo bo'lgan davolanib chikkanlar, yoshlar va o'smirlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi tashviquot bo'yicha faoliyatni tashkil qilish uchun uslubiy ko'llanmalarni tayyorlash;

- giyohvandlikni oldini olish sohasida manfaatdor idoralar, tashkilotlar va muassasalar uchun yoshlar siyosatini amalga oshirish borasida uslubiy va me'yoriy xujjatlarni ishlab chikish.

7. yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish sohasi raxbarlari va maxsus xodimlari uchun yoshlar o'rtasida giyohvandlikni oldini olish bo'yicha dasturlarni ishlab chikish va amalga oshirish;

-turli toifadagi mutaxassislar uchun yoshlar o'rtasida giyohvandlikni oldini olish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chikish va amalga oshirish;

-giyohvandlik bilan kasallangan bemorlarni rehabilitatsiya va profilaktika qilish sohasida tashkilotlar, yuridik shaxslar va fuqarolarga huquqiy, maslaxat va uslubiy yordam ko'rsatish.

8. ilmiy-tadqiqot, axborot, nashriyot va poligrafiya faoliyatini amalga oshirish: -yoshlar o'rtasida giyohvandlikning tarqalishi sohasida ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish;

-ommaviy axborot vositalari orqali yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kayfiyatni shakllantirish maqsadida axborot tarqatuvchi funktsiyasini amalga oshirish;

-giyohvandlikning oldini olish faoliyatida ishtirok etuvchi tashkilotlar va mutaxassislar xaqida ma'lumotlar to'plash va kayta ishlash;

-giyohvandlikni oldini olish bo'yicha o'quv ilmiy-amaliy xujjatlar, nashrlarning va bu boradagi ta'lim, ilmiy-amaliy dasturlar va giyohvandlik profilaktikasi hamda rehabilitatsiyasi bo'yicha boshqa chora-tadbirlar hakidagi ma'lumotlarning tahlil kilinishi.

Markazning giyohvandlikni oldini olish borasidagi faoliyati ikkita asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi lozim: vazifasi xali giyohvand vositalarini iste'mol qilmagan shaxslarda giyohvandlik vositalariga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish bo'lgan - dastlabki profilaktika va giyohvandlik vositalarini ilgari iste'mol qilgan shaxslarning yana bunday yo'lga kirishining oldini olishga yo'naltirilgan - nakkilamchi (takroriy) profilaktika.

Dastlabki profilaktikada kuyidagilarni rejalashtirish mumkin: yoshlar, o'spirinlar va bolalar o'rtasida giyohvandlik vositalariga nisbatan monitoring o'tkazish; ushbu muammo bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish; mavzu bo'yicha ommaviy axborot vositalarida chikishlar qilish tizimini tashkil qilish maqsadida giyohvandlikning oldini olish, giyohvandlik vositalari savdosi, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi masalalarini va muammolarini ishlab chikadigan jurnalistlarning maxsus turuhini funktsiyallashtirish va

shakllantirish; ommaviy axborot vositalarida ota-onalar, pedagoglar, tarbiyachilar, sog'liqni saqlash idoralari, xuquqni muxofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun muammolarni yoritish bo'yicha ilmiy asoslangan dasturlar va tavsiyalarni yaratish.

Ikkilamchi profilaktika esa kuyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: ilgari -iyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilgan shaxslarni xamaytirishga karatilgan choralarni, ularning ijtimoiy moslashuvini tashkil etish; gibbiy reabilitatsiya chora-tadbirlari tizimini tashkil etish; giyohvandlikka muhtalo bulgan oilalarga ijtimoiy-tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish va uning turli shakl va ko'rinishlarini ishlab chikish; giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilar oilan ishlaydigan mutaxassislar, pedagoglar, oliy va o'rta maxsus o'kuv yurtlari o'kituvchilari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tegishli xodimlari, uchastka nozirlari va tibbiyot xodimlarini o'kitish, kayta tayyorlash; giyohvandlik bilan kasallanganlarning reabilitatsiyam va ijtimoiy moslashuvi kontsepsiyasini ishlab chikish va joriy qilish, viloyatlarda jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan reabilitatsiya bo'limlarini tashkil qilish.

Fikrimizcha, markazning tashkil etilishi giyohvandlikning oldini olishda turli manfaatdor organlarning, tashkilotlar, muassasalarning kuchini birlashtirib va giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasining oldini olish bo'yicha xarakatlarni muvofiklashtirib joylarda giyohvandlik bilan bog'liq vaziyatni barqarorlashtirishga imkon beradi. Giyohvandlikni oldini olish tizimining ajralmas elementi bo'lib bevosita giyohvandlikni oldini olish faoliyati sub'ektlari xisoblanadi. Ularga oila, mehnat va o'kuv jamoalari, ular tomonidan tashkil etiladigan tashkilotlar, organlar, fuqarolar, shuningdek ular tomonidan tashkil etiladigan boshka organlar kiradi. Ushbu sub'ektlar bevosita insonga, mehnat sharoiti va tarbiyaga ta'sir ko'rsatish orqali giyohvandlikning va u bilan bog'liq bo'lgan kriminogen xolatlarning oldini oladi, giyohvandlik zamiridagi jinoyatlar sharoit va sabablarini bartaraf etadi.

Oilada giyohvandlik profilaktikasi giyohvandlikka qarshi tarbiyaning muxim vositalaridan bo'lib xisoblanadi. Aynan oilada shaxsning dastlabki ijtimoyalaniishi sodir bo'lib individ tomonidan keyingi hayot tarzini tanlashni

belgilaydigan ma'lum ijtimoiy yo'nalishlar paydo bo'ladi. Shuning bilan bir katorida oila muhiti jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi kriminogen omillardan biri, shuningdek ko'pchilik jinoyatlarning sodir bo'ladigan joyi sifatida namoyon bo'ladi.

Jeraldo CHEypi (AQSH) oila tarbiyasining rolini ta'kidlab shunday yozgan: "Siz farzandingizga eng kulay sharoitlarni (xayot tarzingiz va darajangiz imkoniyat berishiga karab) ta'minlashga harakat kilasiz yoki uning rivojlanishida o'zbo'larchilikka yo'l ko'yasiz. Oxirgi vaziyatda Sizlar tomondan bir umrga uning ichki potentsialini ochish imkoniyatida xatoga io'l ko'iiladi.

Bolaning ijtimoiy lashuvi eng dastlabki yoshlaridan boshlanadi va ijtimoiylashuvning birinchi agenti bo'lib onasi hisoblanadi, xususan, maktabgacha bo'lgan yoshda bolaga uning ta'siri yuqori bo'ladi.

SHaxsning shakllanish jarayoni va oilasi tarbiyasi asosan katta avlod xayotiy tajribasining o'tishi xisobiga sodir bo'ladi. Bevosita ijtimoiy muxit sifatida oila, boshqa ijtimoiy institutlarga Karaganda bolalarning ijtimoiy kadriyatlar va rollar:ilan mulokrtga kirishishda, ijtimoiy va kasbiy tuzilmalarga qo'shilishda maksimal ^mkoniyatlarga ega.

YOshlarda giyohvandlik vositalariga kiziqishning oldini olishning eng muxim shartlaridan biri bo'lib soglom oilaviy muhit, oila a`zolarining bir-biriga nisbatan ishonch asosidagi munosabati hisoblanadi. Gegel tomonidan ta'kidlanishicha, oilaviy munosabatlar ahlokiy koidalar, sevgi va ishonch printsiplariga asoslanadi. Shu :ababli ota-onalar oilada o'zaro tushunish, muxabbat, ishonch va do'stona muhitni yaratishi, umumiy manfaatlarni topishga intilishi, bolalarga ko'proq diqqatini karatishlari kerak. Oilaning tarbiyaviy komponentlari kengdir. I.V.Grebnikovning eikriga ko'ra ularga quyidagilar kiradi: moddiy va maishiy sharoitlar; oila a`zolari soni va tarkibi, oilaning ma`naviy va jo'shkin-ruhiy muhiti, oila jamoasining rivojlanish darajasi; oila a`zolari o'rtasidagi munosabatlar xarakteri; oilaning chehnat muxiti; oilaning katta yoshli a`zolarining hayotiy tajribasi va madaniy-ma`rifiy darajasi; ota-onalarning namunaviyligi; ommaviy axborot va madaniyat

zositalaridan foydalanish imkoniyati; oilaning ichki muloqot va atrof-muhit bilan muloqot qilish tizimi; oila a`zolarinig pedagogik madaniyati darajasi; oilada pedagogik kuchlarning taksimlanishi; oilaning urf odatlari; ota-onalar kasbiy tajribasining xususiyatlari.

Har kanday boshka tizim singari oila muvozanatni saqlashga harakat qiladi va shu sababli epik xisoblanadi. Muvozanatni saklab kolish uchun oila uz oila a`zolaridan birontasining giyohvandlik bilan kasallanishiga ta`sir ko`rsatadi va shunga muvofiqlashadi. Shuningdek, alohida oila a`zolarining turli darajadagi moslashuv kobiliyati tez-tez uzoq muddatli ta`siri mikrojarohatga olib kelishi mumkin bo`lgan ruhiysomatik buzilishlar xisoblanuvchi to`qnashuvlarga olib kelyapti.

Giyohvandlik zamiridagi oilaviy nizolarni tahlili, bitta oilada xar doim xam kator sabablarga ko`ra o`zaro moslashish mumkin emasligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan D.A.Shestokov tomonidan ishlab chikilgan jinoyatning oldini olishda oila kriminoterapiyasi kontseptsiyasining istikbolli rivojlanishi namoyon etadi. Oilaviy munosabatlarning kriminoterapiyasi (guruhlashgan ijtimoiy-ruxiy profilaktika) deganda, jinoyatlarni oldini olishning asosiy turi tushunladi. Olim fikriga ko`ra, oilaviy kriminoterapiya o`zining oldiga oilada shaxslararo munosabatlarni o`zgartirish orqali jinoyatlarni oldini olishni maqsad kilib qo`yadi.

Kriminoterapevtning diqqat markazida alohida bir inson emas, balki jinoyat sodir etishga moyilligi bor odam bilan uning oilasi o`rtasidagi o`zaro munosabat, vaziyat dinamikasi bo`lishi kerak.

Kriminologik terapiya metodikasi xar xil turdagi kriminogen oilalar uchun universaldir: nizoli va gayri ijtimoiylashgan; garazli va tajovuzkor g`ayri ijtimoiylashgan; "stajli" giyohvandlar oilalari va giyohvandlik vositalarining tasodifiy iste`molchilari oilalari. Uning asosida umumiy printsiplar yotadi, lekin D.A.Shestakov fikricha, ular oilaning xar bir a`zosining shaxe xususiyatlari va «-riminogen harakatlarining xarakteriga bog`liqligi bilan o`zgarishi kerak. Oilaviy oiminoterapiya asosini umumiy printsiplar tashkil etadi, lekin D.A.Shestakov

gikricha alohida hollarda ular oilaning xar bir a`zosi shaxsining xususiyatlari va •griminogen harakatlarining xarakteriga bog`lik holda o`zgarishi kerak. Yuqorida sanab >tilgan tadbirlar giyohvandlikning oldini olishga yo`naltirilgan keng qamrovli ijtimoiy choralarning bir kismini tashkil etadi. Agar oilada individning normal ijtimoiylashuvi ta`minlansa va uning qadriyatlari, ko`nikmalari tarkibida ijodiy chehnat, sog`lom turmush tarzi, ijtimoiy ahamiyatli qiziqishlar, oliy ma`naviy kadriyatlar ustunlik kilsa, unda inson giyohvandlikni keltirib chikaruvchi yomon odatlarga qarshi mustahkam immunitetga ega bo`ladi.

Oilaviy turmush sharoitida giyohvandlik profilaktikasi bolalarning maktabgacha ta`lim muassasalarida, umumta`lim maktablarida, o`kuv muassasalarida giyohvandlikka qarshi tarbiya muammolari bilan chambarchas bog`liqdir. Davlatda giyohvandlikka qarshi ta`lim-tarbiya tizimi mavjud bo`lmasa, ular giyohvandlikning oldini olishda tusikni ta`minlab beruvchi profilaktik markaz vazifasini o`tashi mumkin. Ta`lim muassasalarida giyohvandlik tarqalishining oldini olish dolzarb muammo xisoblanadi. Giyohvandlar balogat yoshidagi guruhlarga xos bo`lgan, o`ziga xos ichki guruh munosabatlariga kirishib, hamfikrlar kidirishadi, guruhlarga birlashadi, irodasi sustlarni yo`ldan ozdirib, shaxslar, o`zaro munosabatlar, aloqalar asosida yangidan yangi kurbonlar tushuvchi butun bir giyohvandlik to`rini tashkil qilishadi.

Ko`plab olimlar bugungi kunda giyohvandlikning an`anaviy kasallik ekanligini e`tiborga olib giyohvandlikka chalinganlar bilan piyohvandlik profilaktikasini o`tkazish bilan bir katorda hali giyohvand vositalarini istemol kilmagan kishilarda kasallikning paydo bo`lishining oldini olish ishlariga e`tibor berishni to`g`ri deb xisoblaydi.

Giyohvandlik muhitining yuqorida berilgan jixatlari xuddi "shaxsiy narkostsenariy", ya`ni usmirning o`ziga xos tassavurida giyohvandlikka to`belik paydo bo`lishi uning uchun kelib chikishi mumkin bo`lgan ruxiy va ijtimoiy okibatlar tarzida ko`rsatilgan. Ushbu stsenariy aniq axborot va emotsional mazmun bilan to`ldirilgan va shaxsiy tajriba bilan mustaxkamlangan. Kontseptsiyani ishlab chiquvchilar fikriga ko`ra, stsenariy va uni amalga oshirish ehtimolligi u yoki bu

darajada tushunarsiz bo'lishi mumkin, lekin oxir okibatda, aynan ular o'smirning giyohvand bo'lish yoki bo'lmasligini aniqlab beradi.

Tavsiya etilgan kontseptsiya giyohvandlikni oldini olishning asosiy yunalishlarini belgilab beradi:

1. giyohvandlik vositalarining zararliligi xakida axborot miqyosida, ya'ni nashrlar, ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvlar berish, ma'ruzalar va boshqa ogzaki shakllarda targib qilish;

2. televidenie ko'rsatuvlari orqali giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish okibatlarini ochib beruvchi oshkora targibot.

3. maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini tashkillashtirish, sport seksiyalarida, kiziqishlarga ko'ra guruhlarda shug'ullantirishni tashkil etish, hamda balogatga etmagan bolalarning o'ziga baxo berish qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan boshqa tadbirlarini tashkil etish bo'yicha ko'shimcha choralar;

4. giyohvandlik vositalarining kelib tushishi va ularning savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslarni aniqlash bo'yicha ichki ishlar xodimlari tomonidan o'tkaziladigan huquqni himoya qilish chora-tadbirlari;

5. giyohvandlarni davolash va bu davolanishni targibot qilish.

SHunday qilib, tavsiya etilgan kontseptsiyaga muvofiq giyohvandlik profilaktikasi bo'yicha ishlar ikki turdagi izoxga ega bo'lishi mumkin: giyohvandlik muhitining zichligini kamaytirish; shaxsiy narkostsenariyni amalga oshirish extimolini kamaytirish,

Huqukbuzarliklarning oldini olish bo'yicha "Bo'sh vaqt" ogohlantirish tizimining samarali ishlashi uchun profilaktika sub'ektlari (madaniyat saroylari, stadionlar, kutubxonalar, teatr, kinoteatr, o'smirlar klubi, kizikishlar bo'yicha tugaraklar, sport seksiyalari, mahalla ko'mitalari, o'smirlar ishi bo'yicha inspeksiya va boshqalar) quyidagi shartlarning amalga oshirilishini ta'minlashi lozim:

- turar joy bo'yicha tarbiyaviy muhitni vujudga keltirish;
- jamoatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi elementlarni bartaraf qilish;
- bosh vaqtlar dorasida ma'naviy hulk-atvor va mulokot tajribalariga

ega oo'lishni ta'minlash;

- turli yo'shlardagi voyaga etmaganlarning kizikishini, idrokini, ijodiy kobiliyatini rivojlantirish;

- g'ayri ijtimoiy hodisalarga nisbatan murosasizlini, ijtimoiy faolligi va irodasini shakllantirish,

- o'smirlarning yoshi va kizikishlarini hisobga olgan holda, madaniy - ommaviy va sport ishlari ko'lamini kengaitirish.

Bu sub'ektlarning profilaktik ta'siri yuqorida sanab o'tilgan shartlarni xisobga olganda antikriminal jarayonlar va omillarning rivojlanishiga yordamlashadi, o'smirlarda to'g'ri xayot tarzini olib borish xususiyatlarini shakllantiradi. Giyohvandlikning oldini olishda mehnat jamoalari ham muhim o'rin tutadi. Yuridik adabiyotlarda haqli ravishda, "mexnat jamoasi - jamoat, hamda ijtimoiy kriminologik profilaktika sub'ektlari" sifatida kayd etiladi. Uning ogohlantirish doirasi jamoa a'zolari tomonidan huquqbuzarlikka o'z munosabatini bildirish bilan cheklanmaydi. U ham profilaktik vazifalarni bajaradi: ishchilarning shaxsiy manfaatlarini jamoa, guruh manfaatlarini bilan uygunlashuvini ta'minlaydi, jamoa a'zolarining turli extiyojlarini yanada to'liq kondirish uchun sharoitlar yaratib beradi.

Giyohvandlik oldini olish faoliyatida oila, o'kuv yurtlari va mexnat jamoalari bilan bir qatorda fuqarolarning jamoat birlashmalari xam sub'ekt sifatida ishtirok etadi. Ularni ham giyohvandlik muammolari, giyohvandlikka moyillikning oldini olish faoliyatiga jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. YAqin xorijiy mamlakatlar tajribasinn o'rganish ham giyohvandlikni oldini olish faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi.

Sankt-Peterburgda tashkil etilgan "Ruhshunos-narkologlar assotsiatsiyasi" faoliyati alohida kiziqish uyg'otadi. Ushbu tashkilot barcha ruxshunos-narkolog shifokorlarni birlashtirish hamda tibbiyotda amaliy klinik soha sifatida narkologiyaning dolzarb vazifalarini echish maqsadida o'z faoliyatini boshlagan. Uning faolliyatining asosiy yo'nalishlari:

-ruxshunos-narkologlarni tayyorlashda davlat narkologik xizmatiga yordam berish;

-kasallarni kasallikning ilk boskichida davolash reabilitatsiya tadbirlariga jalb qilish;

-davlat tizimi va ijtimoiy dasturlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish;

-davlat narkologik xizmati va xususiy shifokorlarning narkologik yordami samarasini baholash.

So'nggi paytda giyohvandlikning oldini olishda yoshlar ijtimoiy markazlarining o'rnini bekiyos darajada ortib bormokda. Ushbu tashkilotlar faoliyati uz ichiga faqat bo'sh vaqtni tashkil etishni emas, balki ta'lim elementlari, bolalarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilish, narkotobelik muammolariga duch kelgan yoshlarning bandligini ta'minlashni oladi. Kol yarim orolining ayollar assotsiatsiyasi faoliyati bunga misol bo'lib xizmat qiladi. Bu assotsiatsiya doirasida yoshlarning moslashuvi dasturlarini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi yoshlar markazi, hamda o'smirlarga psixologik, ijtimoiy pedagogik, tibbiy-ijtimoiy, hukuqiy reabilitatsiya yordamini ko'rsatuvchi "Nadejda" nomli Kaluga yoshlarni ijtimoiy himoya qilish markazi tuzilgan.

Giyohvandlikning va giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasining oldini olish sub'ektlari ichida markaziy o'rinlardan birini xuquqni muxofaza qilish organ lari, eng avvalo ichki ishlar organ lari tashkil etadi. Ular o'z vakolatlari doirasida tezkor vaziyatni o'rganish va tahlil qilish; tarkibida giyo'xvandlik vositalari bo'lgan o'simliklarni noqonuniy ekish uchastkalarini aniqlash, ularni tekshirish va yo'qotish; xizmat ko'rsatuvchi ob'ektlarning xo'jalik faoliyatini iktisodiy tahlil qilish; giyo'xvandlik vositalarini iste'mol qilishning zararli va xavfliligi xaqida huquqiy, tibbiy-sanitariya targ'ibotini o'tkazishni o'z ichiga oluvchi umumiy profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari umumiy profilaktik choralardan tashqari quyidagi uch elementni o'z ichiga oluvchi alohida ma'muriy-profilaktik choralarni amalga oshiradi: giyo'xvandlik vositalarini tayyorlovchilarni, o'tkazuvchilarni va shifokor tavsiyasiz giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishni boshlagan shaxslarni

aniqlash; giyohvandlarni profilaktik hisobga olish; ularga tarbiyaviy-profilaktik ta`sir o`tkazish.¹⁷

Alohida ma`muriy-profilaktik faoliyatda giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga kuzrshi kurash bo'yicha bo'linmalardan tashqari ichki ishlar organlarining ko'pgina xizmat va bo'linmalari ishtirok etadi. Ushbu faoliyat bo'yicha militsiya uchastka nozirlariga keng vakolatlar berilgan. Ular bevosita ma`muriy uchastkada yashovchi aholi bilan birgalikda jamoat tashkilotlari yordamiga tayangan holda narkotik mastlik xolatida bo'lgan shaxslarni aniqlaydi va ushlaydi, xisobda turuvchi shaxslar bilan profilaktik ishlarni olib boradi. Bundan tashqari uchastka nozirlarining profilaktik faoliyatining asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- voyaga etmaganlar inspeksiylari xodimlariga giyohvandlik vositalarini notibbiy maqsadlarda iste`mol qiluvchi voyaga etmaganlarning yigilish joyini aniqlashda yordam

- giyohvandlik vositalarini sotib olish uchun sarflanadigan vosita hamda pullarning kelish manba va kanallarini aniqlash;

- giyohvandlik vositalarini iste`mol qiluvchi voyaga etmaganlar guruhini, ularning tarkibini, sardorlari, katta yoshli iste`molchilar, tayyorlovchilar va sotuvchilar bilan zlokalari aniqlash;

- jamoatchilik va aholi yordamida choralar ko'rish.

Giyohvandlikka qarshi kurashda ichki ishlar organlari faoliyati ko'p qirralidir. Shunday kilib, giyohvandlikni oldini olishning kriminologik tizimi giyohvandlik zositalarining noqonuniy muomalasi va giyohvandlikka qarshi kurashda kompleks choralarning amalga oshirilishi bilan bog'liq davlat va jamoat institutlarining muvofiklashgan faoliyatidan tashkil topadi. U tartibga solish, himoya va tarbiya funktsiyalarini bajaradi. Tizimning asosiy elementlari bo'lib giyohvandlikning oldini olish faoliyati sub`ektlari xisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi: bevosita profilaktika sub`ektlari; huquqni muhofaza qilish vazifalarini bajarishda j-inoyatning profilaktikasini amalga oshiruvchi sub`ektlar; giyohvandlikka qarshi kurashda raxbarlikni amalga oshiruvchi

sub`ektlar. Bu tizim, uning alohida sub`ektlarining maqsadi giyohvandlikning oldini olish bo'yicha faol harakatlardan, giyohvandlik bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarning profilaktikasi, ularning takroran sodir etilishining oldini olish bo'yicha tarbiyaviy-profilaktik choralarni amalga oshirishdan iborat.

2.2. Giyohvandlikni oldini olish tizimini takomillashtirishning istiqbolli choralari

Giyohvandlik va giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasining oldini olish va unga qarshi kurashda yangi tamoyillar va yondoshuvlarni izlash giyohvandlikni oldini olishning faol profilaktik choralari, uni keltirib chikaruvchi sabablarni bartaraf etishni birinchi o'ringa chiqarib xozirgi sharoitda jamiyat ma`naviy muhitini tozalash bo'yicha serkirra faoliyatning muxim vazifasi sifatida ko'riladi. Bunda ushbu xodisaning oldini olishga karatilgan umumijtimoiy va maxsus xarakterdagi normalar birikivuga asoslangan umumdavlat dasturini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashni tashkil etishda va giyohvandlikning oldini olishda manfaatdor kuchlar va vositalarning o'zaro aloqasi muxim rol o'ynaydi.

Giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etishning murakkabligi ularning latentligi bilan bog'liq. Bu manfaatdor idoralar, birinchi navbatda huquqni muxofaza qiluvchi idoralar o'rtasida o'zaro xamkorlikni tashkil etishni talab etadi. Bunda Ichki ishlar, Bojxona va boshka manfaatdor idoralar o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek zimmasiga giyohvandlikka qarshi kurashish majburiyati yuklatilgan tegishli organlarning xalqaro darajadagi hamkorligini yo'lga ko'yilishi ushbu muammoning oldini olishda asosiy vosita sifatida qaralmog'i lozim. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning uyushkoklikdagi faoliyati moxiyati tezkor chora-tadbirlarda vazifalar, yo'nalishlar, umumiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish vaqti bo'yicha

barcha ishtirok etuvchi taraflarning kuch va vositalarini muvofiklashtirish harakatlarida izoxlanadi.

Yo'lga ko'yilgan idoralararo xamkorlik tizimiga IIV va MXX xizmati idoralarining giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi birgalikda kurash olib borish faoliyatini kiritish mumkin. 1995 yilning yanvar-fevral oylarida Vashingtonda o'tkazilgan giyohvandlik vositalariga qarshi kurash bo'yicha 73-Xalkaro seminarda ushbu muammoni samarali bartaraf etishda idoralararo xamkorlikni tashkil etishga alohida e'tibor karatildi.

Nazarimizda tergovchilar va tezkor xodimlar kuchlarini birlashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida puxta xamkorlikni yo'lga qo'yish va ularning faoliyatini muvofiklashtirish giyohvandlikni oldini olish va unga qarshi kurashda samarali vosita sifatida qaralmogi lozim. Ushbu fikr giyohvandlik vositalari nokrnuniy savdosiga qarshi kurashda hukuqni muxofaza qiluvchi organlar kuch va vositalari yaqin xamkorligining moxirona tashkil etilishi, uzluksizligi ular zimmalariga yuklatilgan vazifalarni muvaffakiyatli xal qilish imkonini beradi deb xisoblovchi qator mutaxassislar tomonidan ham tasdiklanadi. Giyohvandlikning oldini olishda huquqni muxofaza qiluvchi organlar bilan manfaatdor idoralar o'rtasida o'zaro xamkorlikni yo'lga ko'yishda ommaviy axborot vositalariga alohida e'tibor karatilishi lozim. Axborot yondashuvi buzilgan xulk-atvorga qarshi kurashish vositasi hisoblanib¹⁸² ommaviy axborot vositalari giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishni salbiy baxolovchi ijtimoiy fikrni, jamiyatda jinoyatlarga nisbatan, qonun buzilishiga va unda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qodir.¹⁸³ Bunda axborotning salbiy ijtimoiy okibatlar keltirib chikarmasligiga alohida e'tibor berilishi lozim. Ommaviy axborot vositalarining bunday faoliyati huquqiy tartibga solinib tegishli tashkiliy masalalar xal etilishi lozim.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarini targib qilish, giyohvandlik vositalarini tayyorlash, foydalanish va ishlov berish usullari, vositalari xakida ma'lumot tarqatishga karatilgan poligrafiya

mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishga nisbatan qonuniy ta'kidlar o'rnatilishi lozim.

Giyohvandlikning oldini olishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni takomillashtirish maqsadida ularning manfaatdor idoralar huquqni muxofaza qiluvchi va boshqa idoralar bilan o'zaro aloqalarini tartibga soluvchi qonun xujjatlari takomillashtirilishi, ishlab chiqilishi yoki amaldagi qonun xujjatlariga yuqoridagi holatlarni nazarda tutuvchi maxsus koidalar kiritilishi lozim. Tegishli me'yoriy huquqiy xujjatlarda huquqni muxofaza qiluvchi organlar bilan ommaviy axborot vositalarining aloqalari huquqiy va tashkiliy mexanizmlari nazarda tutilishi kerak. Bunda tegishli huquqni muxofaza qiluvchi idoralar tarkibida aholi bilan ishlaydigan, yangi keng funktsiyalar berilgan ijtimoiy aloqalar markazlari, boshkarmalari va oliimlarining tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Giyohvandlikning oldini olishda va giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi kurashda huquqiy madaniyat alohida o'rin tutadi, Huquqiy madaniyat huquqiy ong va borlik komponenti hisoblanib uning uzviy birligida nafakat o'tun ijtimoiy borlik in'ikosi sifatida, balki unga nisbatan faol kayta ta'sir sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy jamiyatda huquqiy madaniyat eng avvalo huquq printsipalarini, davlatning huquqiy siyosatini, qonunchilik va odil sudlov ijtimoiy kadriyatlarini, huquq va ma'naviy ehtiylarning uzviy aloqalarini bilish va ilmiy gushunish bilan izohlanadi. Yuridik normalardan vokif bo'lmay va tushunmay turib hodisalarga samarali va aniq baho berib, samarali mexanizmlarni, yo'nalishlarni va qonunii hulq-atvorni shakllantirib bo'lmaidi.

Giyohvandlikning oldini olish va giyohvandlik vositalarining savdosiga qarshi kurashni huquqda so'zsiz hurmatga asoslanadigan, huquq talablarining inson ichki ishonchiga aylanishi mahsuli bo'lgan huquqiy madaniyatdan alohida baxolash mumkin emas.

Giyohvandlikning oldini olish va giyohvandlik vositalarining savdosiga qarshi kurash borasidagi huquqni muxofaza qiluvchi organlarning huquqni tadbik

etish faoliyatining o'ziga xosligi ushbu idoralar xodimlarining kasbiy huquqiy madaniyatini shakllantirishni talab qiladi.

Giyohvandlik va uning zamirida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha choralar tizimlaridan biri surunkali giyohvandlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish institutidir. Bu shaxslarning oldingi ijobiy ijtimoiy va huquqiy xolatini tiklashga yo'naltirilgan, giyohvandlik zamiridagi jinoyatlarni oldini olishga karatilgan huquqiy va tashkiliy choralarning kompleks tizimidir.

Surunkali giyohvandlarni ijtimoiy reabilitatsiya markazlariga yoki ahlok tuzatish mehnat muassasalariga (jinoyat sodir qilganligida) joylashtirish kriminologii aspektida ular tomonidan jinoyat sodir etilishining va giyohvandlik zamirida jinoyatlar sodir etilishining oldini olishda profilaktik chora sifatida ko'riladi.

Surunkali giyohvandlarga ta'sir o'tkazishning profilaktik choralari modeli va amal qilish mexanizmi professor A.YA.Grishko tomonidan surunkali alkogoliklar va giyohvanlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi Kontseptsiyasida ishlab chikilgan. Uning mohiyati muammoga har tomonlama kompleks va differentsial yondoshuv hamda bunday endoshuvni surunkali alkogoliklar va giyohvandlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi xaqidagi qonunda mustahkamlash lozimligi bilan izohlanadi. U keng ma'noda besh ko'rinishdan iborat bo'lgan ijtimoiy reabilitatsiya modelini qonuniy mustahkalashni tavsiya qiladi. Ular quyidagilardan iborat: tibbiy reabilitatsiya (majburiy tartibda narkologik yordam ko'rsatish); tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya (majburiy tartibda narkologik yordam ko'rsatish); ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya (sudning, sudyaning qarori asosida maxsus narkologik bo'linmalarda majburiy tartibda narkologik yordam ko'rsatish); jinoiy hulkka moyil shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi (jamoat tartibini muntazam buzuvchi yoki boshka shaxslarning huquqlarini cheklovchi); jinoyat sodir qilib ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi.

Bizning nazaimizda buning uchun tibbiy va ijtimoiy yo'sindagi maxsus moslashuv (reabilitatsiya) markazlari tashkil etilishi lozim. Bunday

markazlarning tashkil etilishi birinchidan, kasallikning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, alkogolizm va giyohvandlik zahiridagi jinoiy hulk-atvor yuzasidan muvofiklashtirilgan tarbiyaviy, ma'rifiy, davolash-profilaktik va reabilitatsion chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Giyohvandlikni oldini olish bo'yicha reabilitatsion xarakterdagi chora-tadbirlarning tizimi jazoni ijro etish muassasalari doirasida xam joriy etilishi lozim.

Ahloq tuzatish mehnat koloniyalarning giyohvandlikni oldini olish borasidagi roli bir qancha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: birinchidan, maxsuslashtirilgan ahloq tuzatish mehnat muassasalari mahkum kilingan kasal giyohvandlarga nisbatan davolash-tarbiyaviy ta'sir choralari qo'llanilishini ta'minlaydi; ikkinchidan, barcha ahloq tuzatish mehnat koloniyalari mahkum kilinganlar o'rtasida giyohvandlikning tarqalishini oldini olish bo'yicha profilaktik ishlarni tashkil qiladi; uchinchidan, ahloq tuzatish mehnat koloniyalari giyohvandlikni oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa organlar bilan tashqi aloqalarni amalga oshiradi. Ushbu yo'nalishlar o'zaro bog'lik bo'lib, ularning har biri -giyohvandlikka qarshi kurashda uz shakl va usullariga ega.

Ushbu kontsepsiya Rossiya Federatsiyasida amaliyotga joriy etilgan bo'lib hozirda mamlakat IIV jazoni ijro qilish muassasalari tizimida sakkiz ta maxsuslashtirilgan davolash axloq tuzatish muassasi amal qilmokda. Ularda 85 ming nafar mahkum qilingan giyohvandlar jazo muddatlarini o'tamoqda."

Yuqoridagilarga bog'liq ravishda, ilg'or olimlarning bu boradagi tadqiqotlarini va jazoni ijro qilish muassasalari borasidagi xorijiy tajribani e'tiborga olib davolash-profilaktika va huquqni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadlarida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Uzbekiston Respublikasining jinoyat protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida" gi 29.08. 1996 yil

qonuni, O'zbekiston Respublikasining 19.08.1999 yilda qabul kilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" gi qonuni va tegishli qonunlarini jinoyat sodir qilishda gumon kilinib ushlab turilgan yoki jinoyat sodir qilishda ayblanib hibsga olingan shaxslarga nakologik yordam ko'rsatish bo'yicha rahbariy koidalar bilan to'ldirish. Bu bora O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2002 yil 3 sentyabrdagi 231-sonli buyrug'i bilan tasdikdangan "O'zbekiston Respublikasi IIV tergov hibsonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saklanayotgan shaxslar tibbiy ta'minoti bo'yicha koidalarida" maxsus koidalar nazarda tutilsa-da nazarimizda buning o'zi kamlik qiladi;

jinoyat ijroiya krnunchiligida quyidagi holatlarni alohida moddalarda kayd etish: turli rejimdagi jazoni ijro qilish koloniyalarida maxkum kilingan giyohvandlar huquqiy makomi; ijtimoiy-reabilitatsiya sub`ektlarining huquqiy xolati; maxkum kilingan giyohvandlarni davolash, shu jumladan ularni tuzatish va kayta tarbiyalash vositalari; jazoni ijro qilish koloniyalaridan bo'shatiladigan va ijtimoiy reabilitatsiya markazlariga yuboriladigan giyohvandlarni majburiy davolashni uzaytirish institutini huquqiy tartibga solish.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi va ularning noqonuniy muomalasining oldini olish borasidagi faoliyatni huquqiy tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan o'z vakolati doirasida amalga oshiriladi. Davlat xokimiyatining markaziy va maxalliy ijro organlari, maxalliy o'z-o'zini boshkarish organlari, tegishli huquqni muxofaza qiluvchi organlar va sog'liqni saqlash idoralari giyohvandlikning oldini olish, giyohvandlarni davolash va ularni ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya si hamda giyohvandlik vositalari va ularning prekursorlari noqonuniy muomalasining oldini olish borasidagi tegishli qonun hujjatlari ijrosini o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

Giyohvandlikning oldini olish sub`ektlari faoliyatining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi konstitutsiya si, ular tomonidan bu borada amalga oshiriladigan faoliyatni huquqiy tartibga soluvchi Uzbekistan Respublikasining qonunlari va boshqa me`yoriy hujjatlari tashkil qiladi.

Ammo giyohvandlik bilan bog'lik vaziyatning muntazam o'zgaruvchan ekanligi huquqiy tartibga solishning unga moe choralari ishlab chiqishni, giyohvandlikning oldini olish borasida yangi strategiyani ishlab chikish va amaliyotga joriy qilishni, giyohvandlik va giyohvandlik vositalari nokrnuniy muomalasi oldini olishning huquqiy asoslarini belgilovchi hozirga va istiqbolga mo'ljallangan yangi qonun va me'yoriy hujjatlarni ishlab chikish va amaliyotga joriy qilishni takozo etmokda.

Huquq qo'llovchi idoralar tomonidan qonun hujjatlarini ko'llashda turli-tumanlikni, tushunmovchiliklarni oldini olish maqsadlarida ayrim qonun hujjatlariga ko'shimchalar kiritilishi lozim bo'ladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 19.08.1999 yilda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" gi qonunida Jinoyat kodeksining XIX bobi normalarida ishlatilgan kator tushunchalar: xususan, "tashish", "tayyorlash", "egallash", "sakdash", "olish", "jo'natish", "foydalanish" singari tushunchalarning huquqiy mazmuni aks ettirilgan normalar kiritilishi maqsadga muvofik bo'ladi. Bundan tashqari yuqoridagi qonunga zimmasiga giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish majburiyati yuklatilgan idoralar aniq tizimi, shuningdek yuqoridagi organlar katoriga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xam kiritilishi va ularning bu boradagi vakolatlarini nazarda tutuvchi maxsus koidalar kiritilishi maqsadga muvofik bo'ladi. Yuqoridagi qonunning 44 moddasi uchinchi kismi "shifokor va muassasani erkin tanlash" jumlasini bilan to'ldirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" gi qonuni giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurash soxasida kompleks choralarni nazarda tutuvchi qonunchilik xujjati bo'lsa-da, giyohvandlik muammosining oldini olish va unga qarshi kurashning barcha choralari kamrab olmaydi. Ushbu qonun fakatgina giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni (P-bobi) hamda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini

amalga oshirish shartlarini (SH-bobi), giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan foydalanish (IV-bobi), giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish (V-bobi), giyohvandlik va zaxarvandlik bilan kasallangan bemorlarga beriladigan narkologik yordam ko'rsatish (VI-bobi) bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Shunday ekan giyohvandlikni oldini olish borasidagi faoliyatning huquqiy tartibga solinishi keyinchalik yanada takomillashtirishi lozim. Bizningcha u quyidagi yo'llar orqali ta'minlanishi mumkin; a) jinoiy, ma'muriy, tezkor-qidiruv, jinoyat ijroiya, jinoyat protsessual va boshqa tegishli qonunchilik normalarini hamda tashkiliy masalalarni o'z ichiga oluvchi yagona kompleks me'yoriy xujjatning ishlab chilishi bilan yoki, b) amaldagi jinoyat, tezkor-qidiruv, ma'muriy, jinoyat protsessual, jinoyat ijroiya va boshqa hujjatlariga bir-birining uzviy mantiqiy davomi bo'lgan o'zaro bog'liq, uyg'un birlikni tashkil etuvchi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish.

Bu borada giyohvandlikni oldini olishni faollashtirish maqsadida MDH mamlakatlari parlamentlararo assambleyasi tomonidan qabul qilingan "giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari noqonuniy muomalasiga qarshi kurash haqida" gi qarori tavsiyalari asosida tegishli qonun hujjatining tayyorlanishi va qabul kilinishi makbul echim sifatida ko'rilishi mumkin.

Ushbu qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari noqonuniy muomalasi bilan bog'liq huqukka g'ilof faoliyatning oldini olish, ularni fosh qilish va bunday faoliyatga barxam berish gozasidan huquqiy choralardan foydalanish orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalasiga, ogir qilmishlarni sodir etgan shaxslarni jazolash, jinoiy daromadlarning legalizatsiya kilinishiga va ortishiga qarshi karatilgan bo'lishi, shuningdek uni ko'llashda yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlari beligilanishi lozim.

Ushbu hujjat umumiy koidalar, shuningdek giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha jinoiy-huquqiy, fuqarolik-xukuqiy, ma'muriy - huquqiy, kriminologik, ijtimoiy-tibbiy reabilitatsion va boshqa tashkiliy yo'sindagi choralarni nazarda tutuvchi bir necha boblardan iborat bo'lishi mumkin. Bunda yuqoridagi choralar soxalararo tizimlashtirilgan holda qayd etilishi maqsadga muvofik bo'ladi. Shuningdek unda alohida bo'lim, bob shaklida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari noqonuniy muomalasidan olinadigan daromadlarni legallashtirishga qarshi karatilgan choralarning kompleks tizimi ishlab chiqilishi lozim. Ushbu choralarning ishlab chiqilishida yuqoridagi holatlarni e'tiborga olish kerak:

birinchidan, qonunning yuqoridagi koidalarini ishlab chikishda MDH mamlakatlari parlamentlararo assambleyasi tomonidan qabul kilingan "jinoiy yo'l bilan orttirilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash xakida" gi tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan qonuniy hujjat asos sifatida olinishi lozim;

ikkinchidan, jinoiy daromadlardan olinadigan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashda solik idoralariga ustuvor o'rin berilishi kerak. Jinoiy yo'l bilan orttirilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi xalkaro xamkorlikning umumiy masalalarini muvofiklashtirish Tashki ishlar vazirligi tomonidan xalharo kelishuvlar asosida amalga oshirilishi lozim;

sud hukmi bilan undirilgan jinoiy yo'l bilan orttirilgan daromadalar uni aniqlashda, fosh etishda va olib qo'yishda ishtirok etgan huquqni muxofaza qiluvchi organlar o'rtasida taksimlanishi va giyohvandlikni oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha faoliyatga yunaltirilishi lozim.

Giyohvandlikning oldini olishni jinoiy huqukiy normalar ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Giyohvandlikning oldini olish va giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash faoliyatida foydalaniladigan jinoiy-huquqiy normalarni kuyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- ta'kiqlangan ekinlarni etishtirganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi;

- giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi;

- giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshka xarakterlik qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi;

- giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi;

- giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish koidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi;

- giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshka xarakterlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi;

- tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash asoslari va tartibini belgilovchi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi giyohvandlik vositalari bilan bog'liq, jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilash bilan bir katorda profilaktik xarakterdagi maxsus normalarni xam nacharda tutadi. Giyohvandlikni oldini olishning jinoiy huquqiy choralari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- giyohvandlikka qarshi qonun hujjatlarini targib qilish;

- huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslarni rasman ogohlantirish;

- huquqbuzarlarni giyohvandlik vositalari bilan bog'liq boshlangan jinoiy xarakterlikni tugallashdan ixtiyoriy kdytishga undash;

- giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasida ishtirok etuvchi shaxslarni kilmishidan pushaymon bo'lishiga faol undash;

-jazo muddatini o'tab chikkan giyohvandlar tomonidan retsidiv jinoiy kilmishlar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish¹.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining giyohvandlikning oldini olish borasidagi rolini inobatga olib, bizningcha giyohvandlik vositalarini notibbiy maqsadlarda iste'mol qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi maxsus jinoiy huquqiy norma bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu normaning Jinoyat kodeksiga kiritilishi aholi orasida giyohvandlik vositalariga ruju qo'yish xolatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Bundan tashqari ushbu norma giyohvandlikni olish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilgor tajribalarida ham o'zining ijobiy jihatlarini namoyon qilib kelmokda.

Giyohvandlikning oldini olish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasini va Respublika amaliyotini o'rganish giyohvandlik muammosini barataraf etish bo'yicha kompleks choralarni tegishli tashkiliy-boshkaruvsiz, kadrlar va moliyaviy ta'minotsiz amalga oshirib bo'lmasligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Giyohvandlikning oldini olish faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun kator tashkiliy-boshkaruv va kadrlar bilan bog'lik muammolarni xal etish lozim bo'ladi:

- giyohvandlik vositalarini suiste'mol qilishning oldini olish va ularning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash bo'yicha idoralararo doimiy muvofiklashtiruvchi kengashni tuzish;

- giyohvandlikning oldini olish bo'yicha umumdavlat va mintakaviy dasturlarni ishlab chikish va ularning ijrochilarini belgilash;

- giyohvandlikning oldini olish va davolash, shuningdek ularning reabilitatsiyasi bilan shug'ullanuvchi xududiy o'kuv uslubiy markazlarni tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi xuzurida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashuvchi, giyohvandlikni oldini

1 Осмоналиев К.М. Уголовно-правовые меры предупреждения и пресечения незаконного оборота наркотических средств (по материалам Кыргызской Республики). Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. -М., 1997.-С.17

olish va davolash faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha idoralararo markazni tashkil etish;

- Uzbekistan Respublikasi IIV idoralari giyohvandlikning oldini olish va giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linmalarining kadrlar tarkibini mustahkamlash;

- IIV idolari giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linmalari uchun kadrlar tayyorlash va ularni kayta tayyorlash;

- Uzbekistan Respublikasi IIV Akademiyasi xuzurida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash bo'yicha xodimlar tayyorlaydigan maxsus fakultetni tashkil etish va ularning bitiruvchilaridan kat'iy ixtisosligiga muvofiq ravishda foydalanish;

- Giyohvandlikning oldini olish borasida markaziy va mahalliy darajada davlat, jamoat va xususiy fondlarni tashkil etish.

YUqoridagilardan tashqari giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurash borasidagi ilmiy salohiyat yanada takomillashtirilishi va giyohvandlikka qarshi kurashning ilmiy asoslangan samarali, tejamkor usul va vositalari, kolaversa samarali huquqiy asosi ishlab chiqilishi, mavjud huquqiy xujjatlar esa xar tomonlama takomillashtirilishi maqsadga muvofiq.

Ishlab chiqiladigan tizim giyohvandlik muammosining oldini olish va giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi ilmiy-amaliy asoslangan profilaktik chora-tadbirlarni nazarda tutishi lozim. Bunda asosiy urgu giyohvandlik muammosini hamda giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishini vujudga keltirayotgan sabablarga berilishi lozim. Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar avvalambor muammoni yuzaga keltirayotgan sabablarni bartaraf etishga karatilishi lozim.

2.3. Giyohvandlikning oldini olish borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi

Giyohvandlikning oldini olish va giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi kurash samaradorligini oshirish sharti va bu borada xalkaro xamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri turli mamlakatlarning ushbu sohadagi qonunchilik, ijro, huquqni muhofaza qiluvchi, tibbiyot va jamoat organlari faoliyatining ijobiy tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy qilish xisoblanadi.

Bunda turli davlatlarda giyohvandlikka oid siyosatni, giyohvandlik vositalarini noqonuniy iste'mol qilishning oldini olish va giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasiga qarshi kurashning qonunchilik va tashkiliy ta'minlanishini tahlil qilish alohida qizikish uyg'otadi.

Xalkaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etilishicha giyohvandlikning oldini olish va giyoxvanlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash borasida eng yaxshi tizim Amerika Qo'shma SHtatlarida yo'lga ko'yilgan. Mamlakatda 1930 yilda giyohvandlikka qarshi kurash borasida maxsus tashkilot - giyohvandlik vositalari bo'yicha Federal byuro tashkil kilingan. Bu erda o'nlab yillar mobaynida giyohvandlikning oldini olish va giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash borasida federal dasturlar qabul kilinmoqda va amalda ko'llanilmokda. Sud tizimi, ta'lim va sog'liqni saqlash organlarining ta'sirchanligini oshirish, huquqni muxofaza qilish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha kopleks choralar tizimli ravishda ishlab chikilmoqda va amalga oshirilmokda.

Hozirgi vaqtda mazkur faoliyatning asosi - 2000-2010 yillar mobaynida giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha milliy strategiya xisoblanadi. Giyohvandlikka qarshi kurashning 1990 - 2000 yillar davri uchun mo'ljallangan milliy strategiyasida xam kator asosiy yo'nalishlar belgilab berilgan. Jinoiy adliya ushbu yo'nalishlar katoriga kiritilib u giyohvandlarni davolash va reabilitatsiya qilish; giyohvandlik vositalarining maktablar, yashash va ish joylarida tarqalishining oldini olish; chet ellarda giyohvandlik vositalarining ishlab chiqarilishiga qarshi kurashish; giyohvandlik vositalari

kontrabandam ga qarshi kurashish; razvedkadan foydalanish; keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar o'tkazish choralari nazarida tutar edi.

Strategiyaning asosiy maqsadi xalkaro narkomafiyalarni tugatish va o'n yildan keyin giyohvandlik vositalari iste'molini 50 % kiskartirish xisoblangan.¹

AQSH da giyohvandlik vositalarining savdosiga qarshi kurash bilan asosan Adliya, Mudofaa, Moliya vazirliklari, razvedka idoralari shug'ullanadi. Zimmasiga giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatchilikka qarshi kurashish milliy strategiyasini ishlab chikish yuklatilgan markaziy idora Adliya vazirligi xisoblanadi. Uning tarkibiga: giyohvandlikka va giyohvandlik vositalarining savdosiga qarshi kurashishga daxldor amaliy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga mas'ul Giyohvandlik vositalarining tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha boshqarma (DEA); Federal tergov byurosi (FBR), jinoiy ishlar bo'yicha boshqarma tarkibiga kiruvchi Giyohvandlikka va giyohvandlik vositalari savdosiga qarshi kurashish bo'yicha bo'lim kiradi. AQSH da giyohvandlik vositalarining savdosiga qarshi kurashish bilan Adliya vazirligi tizimiga kirmaydigan immigratsiya xizmati; kirgok muhofazasi xizmati; bojxona xizmati xam shug'ullanadi.

Giyohvandlik vositalarining tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha Boshqarma AQSH da giyohvandlik vositalarining savdosiga qarshi kurashda muxim rolni o'ynaydi. Uning asosiy funktsiyalari bo'lib: giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish; giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha milliy tezkor-axborot faoliyatiga raxbarlik; giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi kurashga daxldor amaliy dasturlarni tayyorlash; boshka davlatlarning tegishli xizmatlari tomonidan Boshqarma faoliyatiga aloqador dasturlarning bajarilishini nazorat qilish; giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi kurash masalalari bo'yicha federal, shtatlar va mahalliy xokimiyat organlari faoliyatini muvofiklashtirish; tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan o'simliklarni etishtirishni yo'kotish yuzasidan xorijiy mamlakatlarning barcha darajadagi

1 О наркотической ситуации в СНГ и мире // Диалог. 1994. №12. -С.75

hokimiyat idoralari, hukumatlari bilan hamkorlik; giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish uchun chet davlatlarning milliy kadrlarini tayyorlash va politsiya xodimlarini o'qitish hisoblanadi. Qurolli kuchlar Davlat departamenta va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda ushbu vazifalarni hal etishning muhim vositasi hisoblanadi. Giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish, sotish va iste'mol qilish ustidan nazoratni amalga oshirish funktsiyasi Mudofaa vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Bu funktsiyalarning amalga oshirilishi milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalish sifatida ko'riladi.

Giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurash sohasidagi AQSH davlat siyosatining kayd kilingan jixatlari so'zsiz, "asr vabosi" dan qutqaruvchi vosita emas. Hakikiy vaziyat ushbu mamlakatda giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurashda kandaydir jiddiy muvaffakiyatlar hakida gapirish imkonini bermaydi. Ammo ushbu tajribaga nisbatan tankidiy yondashuv va uning ijobiy jihatlarini tadqiq qilish giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurashning samarali usullarini izlash imkonini berishi mumkin. Giyohvandlik vositalariga qarshi kurash bo'yicha AQSH milliy dasturi jinoiy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha choralarni ham o'z ichiga oladi. Giyohvandlik vositalari bilan bog'lik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik va jazoni nazarda tutuvchi Amerika qonunchiligining asosiy me'yoriy xujjati 1976 yilda qabul kilingan (1981 y., 1986 y. va 1988 y. tahrir kilingan) "Suiste'mol qilishga qarshi kurash hakida" gi qonun xisoblanadi. Ushbu hujjatni taxlil qilish uning giyohvandlik vositalarini noqonuniy ishlab chiqarish, tashish va o'tkazish bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazoni qattikdashtirishga moyillik yo'lidan borayotganligini aniq kayd qilish imkonini beradi. Xususan, 1986 yilgi qonun giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish, chet mamlakatlardan olib kelish yoki tarqatish bilan shug'ullanuvchi tashkilot ma'muri (boshkaruvchisi), tashkilotchisi va raxbari sifatida bevosita ishtirok qilishda aybdor deb topilgan shaxslar uchun agarda bunday tashkilot daromadlari 12 oy mobaynida 10 million dollardan ortsa majburiy umrbod kamok jazosini belgilab berdi.

AQSH da giyohvandlik vositalarining noqonuniy momalasiga va giyohvandlikka qarshi kurash olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning keng tarmogi bilan bir katorda ushbu muammo bilan shug'ullanuvchi yuzlab jamoat tashkilotlari mavjud. 1992 yil mayda tashkil etilgan giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha Milliy markaz ular orasida markaziy o'rinni egallaydi. Markaz mustakil jamoat tashkiloti xisoblanib giyohvandlikka va giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashda tibbiyot, qonunchilik va tartibni saqlash, tadbirkorlik va iktisodiyot soxalari mutaxassisleri, diniy konfessiyalar vakillari kuchlarini jipslashtiradi.

SHunday kilib giyohvandlik vositalariga qarshi kurash bo'yicha AQSH milliy strategiyasini, giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha federal dasturlarni, me'yoriy hujjatlarni, "oq ajal" ga qarshi kurash bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish ushbu umuminsoniy muammoning echimiga nisbatan amaliy yondoshuvlar xakida guvoxlik beradi. Qayd etish lozimki, giyohvandlikning oldini olish va giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi kurash borasida Amerika mutaxassisleri tomonidan ishlab chikilgan strategiya va taktikalar kamchiliklardan xoli bulmasa-da, uning ayrim elementlarini O'zbekiston Respublikasida xam tatbiq etish mumkin.

Giyohvandlik vositalarini notibbiy maqsadlarda iste'mol qilish va giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga nisbatan "kattik" xarakterga ega giyohvandlikka oid AQSH davlat siyosatidan farkli ravishda oxirgi yillar mobaynida kator Evropa mamlakatlarida giyohvandlik vositalariga va ularni qonuniylashtirishga nisbatan liberal (murosasoz) munosabatni nazarta tutuvchi xarakat keng tarrakkiy etdi. Niderlandiya, Daniya, Germaniya va SHveytsariya ushbu xarakat markazlari xisoblanadi.

Ushbu mamlakatlarda giyohvandlik vositalarini qonuniylashtirishni nazarda tutuvchi modellar ishlab chiqilgan bo'lib bu ayni vaqtda ular tomonidan ta'kidlanishicha, giyohvandlik vositalari tarqalishini qisqartirishga qaratilgan. Giyohvandlik vositalarini qonuniylashtirilishi darajasiga karab uch asosiy modelni ajratish mumkin: tibbiy, "sust (passiv) sotish" va liberal (murosasoz).

Tibbiy modelning asosiy mohiyati ushbu mamlakatlarda tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan ta'qiqlangan preparatlarni iste'molga tayinlash bo'yicha maxsus xukuqning tibbiyot xodimlariga taqdim kilinishida izohlanadi. Ushbu modelning taye'rovchilari fikricha, uning jamoat fikrini yupatishga krdiriligi ustuvorligi hisoblanadi.

"Sust sotish" modeli hozirgi vaqtda ta'kiklangan giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish, kayta ishlash, chetdan olib kirish va sotishga har bir mamlakatda davlat monopoliyasini tashkil etishni belgilaydi. Yuqoridagi model uning tarafdorlarining fikriga ko'ra xar kanday ko'rinishdagi bozorni istisno qilish holda uning iste'molchilari uchun ushbu vositalarning mavjudligini ta'minlashga yunaltirilgan.

Nihoyat uchinchi, liberal model taklif kilinuvchi mahsulotning mavjud bo'lishini, narxini va turini bozor qonuniyatlariga, xususan talab va taklifga xavola qiladi.

Ushbu modellarning ishlab chiqilishiga parallel ravishda giyohvandlik vositalarini iste'mol kilinishi tufayli kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni kamaytirishga yunaltirilgan (Drug related harm reduction) progmatik xarakat yuzaga keldi. Bu erda giyohvandlik vositalari - yukrri darajada moslashishga extiyoj sezuvchi, voqeilikning tarkibiy kismi bo'lgan fenomendir deb hisoblovchi fikr kontseptual goyaning asosi sifatida karaladi. Bunga muvofik giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurashish o'rniga giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishning salbiy oqibatlarini kamaytirishga asosiy urgu beriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan mamlakatlarning giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasi muammosiga nisbatan qonunchiligini, tibbiy va jinoiy huquqiy yondoshuvlarini taxlil qilish ularning giyohvandlikka oid davlat siyosatlarida umumiyliklar bilan bir katorida, ma'lum o'ziga xos jixatlari borligini ko'rsatadi. Xususan, Gollandiyada 1970 yillardayok giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilarni ta'kib qilishga emas, balki giyohvandlarni ijtimoiy ajratishga va jinoiy hulkini pasaytirishga yunaltirilgan "lrotsessual

model" ishlab chikildi. 1979 yilda hukumat tomonidan politsiya bilan giyohvandlar va giyohvandlik vositalarini iste'mol qilganlar o'rtasida aloqa o'rnatishga yunaltilgan "pastki pogona" dasturiga o'tish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu dasturga muvofiq xizmat xodimlari giyohvandlarning ismlarini ro'yxatga kiritmasdan ularga nisbatan xayrixoh munosabatni ushlab turishi lozim, giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilarga esa ularning ehtiyojlarini kondiruvchi yordam (turar joy, ijtimoiy yordam, metadon) taklif etiladi.¹ Amsterdamda shaxarning beshta nuqtasida tekin medon berishga rasmiy ruxsat etilgan. Giyohvandlar tomonidan foydalanilgan shpritslarni yangilariga almashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmokda.

Mamlakatda giyohvandlikning oldini olish bo'yicha "xayotiy ko'nikma" larni shakllantirish, shaxsiy va ijtimoiy muammolarni xal etishga asoslangan 200 dan ortiq dasturlar amal qilmoqda.

Giyohvandlikning oldini olish bo'yicha umumdavlat miqyosidagi choralar Adliya, Sog'liqni saqlash va Madaniyat vazirliklarining yaqin xamkorligi asosida ishlab chiqiladi. Mahalliy darajada giyohvandlikning oldini olish va ambulatoriya yordami ko'rsatish bo'yicha choralar uchun 23 kommuna zimmasiga yuklangan. 12 provintsiya dezintoksikatsiya markazlariga ega bo'lib terapevtik yordam ko'rsatishga ma'suldir. Barcha yordam va terapiya markazlari (metadon dasturidan tashqari) muxtor noxukumat tashkilotlar xisoblanadi.

Hududiy tarmoqlar ambulatoriya xizmatlari (joylardagi faoliyat, ijtimoiy maslaxat, davolash, metadonni qo'llash va reabilitatsiya), joylardagi xizmatlar (krizis xolatlari bo'limlari, dezintoksikatsiya bo'limlari, terapevtik bo'limlar), boshqa xizmatlar (kunduz / kecha markazlari, ambulatoriya sharoitida davolash, bandlik va tiklanish) ni uz ichiga oladi. Giyohvandlikni oldini olishning hududiy tizimlari katoriga shuningdek: spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalari bo'yicha tibbiy maslaxatlar o'tkazish markazlari; metadonni ishlatish bo'yicha mahalliy muassasalar, sanitariya xizmatlari, aholini qabul qilish bo'yicha

1 Бунинг Э. Меры по сокращению вреда от наркотиков в Амстердаме // Наркомания и алкоголизм. Современные взгляды. (По материалам международной конференции 23-27 апреля 1990 г. в Востриково). Экспресс-информация.. -М. 1990. Вып. 4. -С.2-3

tuzilmalar kiradi. Maslaxat byurolari zimmasiga shuningdek sudlanganlarga yordam ko'rsatish majburiyati xam yuklangan.

Gollandiya jinoiy qonunchiligi kuchli ta'sir qiluvchi giyohvandlik vositalarini saklaganlik uchun jarima yoki bir yillik tyurma jazosini nazarda tutadi. Tergovning maxsus choralari fakat kuchli ta'sir qiluvchi giyohvandlik vositalari katta miqdorining xalqaro savdosi xolatlari aniqlaganda ko'llaniladi.

Giyohvandlikning oldini olishda eng avvalo ijtimoiy choralardan foydalanib Niderlandiya xukumiati giyohvandlik vositalarini qonuniylashtirishga asoslangan, giyohvandlik vositalari muammosini tartibga solish Kontseptsiyani ma'qul topdi va uni boshka mamlakatlarga taqkoslaganda afzal deb xisoblaydi. Shu asnoda, xayotning o'zi ko'rsatib berganidek, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga nisbatan beparvolik jahonning turli hududlaridan giyohvandlarni va giyohvandlik vositalari sotuvchilarini o'ziga jalb qilmoqda. Bizning fikrimizcha, giyohvandlikning oldini olish borasidagi Gollandiya tajribasi ushbu muammoni samarali bartaraf etish imkoniyatini bermaydi.

Giyohvandlikni oldini olishga nisbatan bunday yondoshuv Shveytsariyada xam shakllandi. Giyohvandlik vositalarini qonuniylashtirish va xokimiyatning ushbu muammoga aralashmaslik yo'li giyohvandlik vositalarini suiste'mol qilish va ularning noqonuniy muomalasi ko'lamining kengayishiga olib keldi. Maxalliy xokimiyatlar taklifi bo'yicha Hukumatning giyohvandlarning muayyan doirasi o'rtasida alohida shaxs va butun jamiyat uchun bu kadamning uzok davom etadigan okibatlarini xisobga olmasdan geroinni qonuniy tarqatish amaliyotini kiritishga urinishi giyohvandlik vositalarining qonunga xilof ravishda sotilishiga qarshi mustaxkam ximoyaning mavjud emasligi sharoitida jinoiy guruhlar tomonidan mamlakat hududidan giyohvandlik vositalarini tarqatish uchun foydalanilishiga olib keldi.

Shveytsariyada giyohvandlikning kengayishiga ma'lum ma'noda liberal jinoyat qonunchiligi xam sabab bo'lmoqda. Giyohvandlik vositalarini tayyorlash, olib kirish, olib chiqish va saqlash 3 yilga xukm qilish bilan yoxud jarima bilan jazolanadi.

Uyushgan jinoiy guruhda ishtirok etish va daromadlar olishda ayb og'irlashadi. Ayrim davlat organlari va jamota tashkilotlari tomonidan mamlakatning 1971 yilgi Konventsiyaga qo'shilishiga, uning kridalarini ratifikatsiya qilish va nazorat kilinuvchi xalqaro ro'yxatga kiritilgan psixotrop moddalarning qonunga xilof savdosiga qarshi kurashni tashkil etishga nisbatan teskari pozitsiyasi ham ushbu mamlakatda giyohvandlikning oldini olish muammosini jiddiy keskinlashtirmoqtsa.

Giyohvandlik vositalarini qonuniylashtirish va ularni notibbiy maqsadlarda iste'mol qilish shuningdek, Germaniyada xam bir qancha tarafdorlarini topdi. Giyohvandlik vositalari bo'yicha ayrim "mutaxassislar" davlat tomonidan nazorat kilinuvchi giyohvandlik vositalarini tarqatish "o'lja" ni qo'lga kiritish uchun zaruriy noqonuniy giyohvandlik vositalari jinoyatchiligini kamaytiradi va iste'molchilarni qonunii asos ga o'tishga undaidi deo hisoolaidi.

AMMO ushbu pozitsiya xanuz davlat darajasida to'la tasdig'ini topmadi. Germaniyada 1996 yili qabul qilingan giyohvandlik vositalarini suiste'mol qilish bo'yicha milliy dastur giyohvandlikka qarshi kurashning bosh yo'nalishlari sifatida giyohvandlik vositalariga talabni kiskartirish, giyohvandlikka qarshi huquqni muxofaza qilish faoliyati, qonunchilik choralari va xalkaro xamkorlikni nazarda tutadi. Germaniyaning giyoxandlikning oldini olish va giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha milliy strategiyasi shaxe zaifligi, kishilarni giyohvandlikning xavfliligi hakida ogohlantirish zarurligi va ikkilamchi profilaktika o'tkazish kontseptsiyasiga asoslanadi. Asosiy maqsad -giyohvandlik vositalari bilan bog'lik xavf va qiyinchiliklarni tasvirlash uchun maxsus kampaniyalarni o'tkazish xisoblanadi. Turli ijtimoiy guruhlarga mo'ljallangan xarakat rejasi targibot ishlarining keng tizimini nazarda tutadi.

Mamlakatda 300 ta ambulatoriya kasalxonalaridan giyohvandlar xakida axborot to'plovchi markazlashgan "Axborot tizimi" ishlab turibdi. Yoshlarda giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga moyillikni tadmik qilish bilan yoshlar ta'limi Federal markazi xam shug'ullanadi. Turli yosh toifalari

bo'yicha giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish ko'lamini va tabiati yoshlar, oila, ayollar va sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan o'rganiladi.

Germaniyada giyohvandlik vositalari bilan bogliq xuqukbuzarliklar uchun jazoni nazarda tutuvchi asosiy qonunchilik me'yo'riy xujjat 1981 yil 28 iyulda qabul kilinib 1986 yilda to'ldirilgan "Tiyoxvandlik vositalari muomalasi to'g'risida" gi qonun xisoblanadi.

Qonun kuyidagilar bilan bog'liq, kilmishlar uchun jinoiy javobgarlik bo'yicha uch guruh normalarni nazarda tutadi: a) giyohvandlik vositalarini noqonuniy tayyorlash; insonlar xayoti va sogligi uchun xavf tugdiruvchi giyohvandlik vositalarini kup mikdorlarda tayyorlash; jinoiy uyushmalar a'zolari tomonidan giyohvandlik vositalarini tayyorlash; giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadida tayyorlash; b) giyohvandlik vositalarini noqonuniy o'tkazish; alohida ogir xolatlarda giyohvandlik vositalarini noqonuniy o'tkazish: ko'p mikdordagi giyohvandlik vositalari bilan savdo-sotik; ko'p mikdorda giyohvandlik vositalarini olib kirish; v) ko'p miqdorda giyohvandlik vositalarini saqlash. Qonun giyohvandlik vositalarini iste'mol kilganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilamaydi va jamiyat uchun uncha katta bo'lmagan xavf tugdiruvchi huqukbuzarliklar sodir kilgan, hali ham giyohvandlik vositalariga jismoniy qaramlikdan qutqarish mumkin bo'lgan shaxslarga nisbatan jazoni engillashtirishga va hattoki undan voz kechishga qaratilgan normalarni shakllantiradi.

Germaniya qonunchiligining giyohvandlik vositalari iste'molchilariga nisbatan bir kadar liberal yondoshuviga qaramasdan bu mamlakatning ba'zi olimlari bu erda giyohvandlik vositalari bilan bog'liq siyosat ko'proq jazolov xarakteriga ega deb hisoblaydi, bu esa pirovardida, ularning fikricha giyohvandlikning haqiqiy holatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Masalan, Keln universiteta empirik ijtimoiy tadbirkotlar Markaziy arxivi xodimi K.X.Reyband turli mamalakatlarda kuchli va engil giyohvandlik vositalarining tarqalishini hamda giyohvandlik vositalarining tarqalish darajasi bilan giyohvandlikka qarshi amalga oshirilayotgan davlat siyosatining o'zaro aloqasini baholash asosida tadqiqot

o'tkazib turli mamlakatlarda giyohvandlikning tarqalish tendentsiyasi giyohvandlikka nisbatan turlicha siyosatga qaramasdan bitta yo'nalishdan borayotganligini aniqlaydi. Ko'rsatilgan tadqiqotning ishonchliligiga shubha bildirmasdan, kayd qilish lozimki, uning natijalari giyohvandlik muammolari bilan shug'ullanayotgan ko'pchilik olimlar fikri bilan moe tushmaydi. Jaxon hamjamiyati aynan giyohvandlik va giyohvandlik vositalari noqonuniy tarqalishinining oldini olishga qaratilgan kopleks choralarda giyohvandlik bilan bog'liq mushkul vaziyatdan chikib ketish yo'llarini ko'radi. Giyohvandlik va giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasining oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha aniq makeadli siyosat amalga oshirilayotgan mamalakatlarda "oq ajal" ga qarshi kurashda muayyan ijobiy siljishlar yakkol namoyon bo'lmoqda.

SHved hukumati giyohvandlikka oid davlat siyosati ustuvor yo'nalishlarini belgilashda giyohvandlik vositalarini suiste`mol qilish oiladagi, maktabdagi, ishdagi, isheizlik, yolgizlik va boshka xal qilinmagan muammolar natijasi xisoblanishidan kelib chiqadi. Shunga muvofik ravishda davlat va jamoat organlarining asosiy e`tibori turli darajalarda muntazam olib boriluvchi vaziyatni taxlil qilishga karatiladi. Vazirliklar darajasida maxsus muvofiklashtiruvchi organ amal qiladi. Umumdavlat va hududiy darajada - turli masalalar bo'yicha faoliyatni muvofiklashtiruvchi komissiya amal qiladi. Joylarda quyidagi yo'nalishlar yuzasidan muvofiklashtirish va nazoratni amalga oshirish bo'yicha dasturlar tayyorlash nazarda tutilgan:

- maxsus xizmatlar, maktablar, bo'sh vaqtni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi muassasalar, ko'ngilli tashkilotlar, axlok tuzatish muassasalari va shartli ozod kilinganlar ustidan kuzatuvni olib boruvchi organlar bilan hamkorlikda amalga oshiriluvchi, joylardagi vaziyat ustidan joriy nazorat;

- giyohvandlik vositalarini suiste`mol kilganligi yoki jinoiy hulki sababli kamoqqa olingan shaxslarni ijtimoiy xizmatlar tomonidan majburiy kuzatish;

- ijtimoiy xizmatlar, dastlabki kamok joylari, mahalliy axloq tuzatish muassasalari va shartli ozod kilinganlarni kuzatish bo'yicha organlar hamkorligi;

- ijtimoiy xizmatlar, mehnat birjalari, yashash joylarini, profilaktika va reabilitatsiya masalalarida turar joy sug'urtasini takeimlash bo'yicha organlarning hamkorligi. Tibbiy va reabilitatsiya maqsadlarida yordam ko'rsatish 1960 yillardayok SHvetsiyaning giyohvandlikka qarshi davlat siyosati doirasida qabul kilinuvchi barcha dasturlarning asosiy holati hisoblangan. Hozirgi vaqtda mamlakatda giyohvandlik vositalarini suiste`mol qilishga muhtalo bo'lgan kishilar uchun 103 ta mahalliy poliklinikalar faoliyat ko'rsatmokda. Ko'pchilik shifoxonalar ixtiyoriylik asosidagi davolanishni o'tashga mo'ljallangan. Bundan tashqari 42 ta majburiy davolash muassasalari mavjud. Alkogol maxsulotlari va giyohvandlik vositalarini suiste`mol qiluvchi shaxslarni majburiy davolash hakidagi qonunga muvofik alkogol maxsulotlari va giyohvandlik vositalarini doimo suiste`mol qiluvchi shaxslar majburiy davolanishga jalb qilinadi. Davolashning eng yuqori chegarasi 6 oydan oshmasligi kerak.

Giyohvandlik vositalari bo'yicha SHvetsiya qonunchiligi kuyidagilarni jinoiy jazoga sazovor xarakatlar jumlasiga kiritadi: giyohvandlik vositalarini iste`mol qilish; giyohvandlik vositalarini noqonuniy ravishda boshka shaxsga o'tkazish; boshka shaxsga o'tkazish maqsadida giyohvandlik vositalarini egallash; shaxsiy iste`molga emas, balki boshka maqsadlar uchun mo'ljallangan giyohvandlik vositalarini egallash, kayta ishlash, kadoqlash, tashish, saqlash yoki ular bilan bog'liq boshka xarakatlar; giyohvandlik vositalarini sotishga takdim etish, giyohvandlik vositalarini sotishdan tushgan pullarni saqlash yoki o'tkazish; giyohvandlik vositalarini sotuvchi va oluvchi shaxslar o'rtasida aloqa o'rnatilishida vositachilik qilish yoki ularning savdosiga sharoit yaratuvchi boshka xarakatlarni sodir qilish; giyohvandlik vositalariga ataylab egallash.

Giyohvandlik vositalari hakidagi qonunni o'ta kupol ravishda buzganlik uchun 10 yigacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarikasidagi jazo nazarda tutilganligini istisno kilganda giyohvandlik vositalari xakidagi qonunni buzganlik uchun jazoning eng yuqori muddati uch yillik ozodlikdan maxrum qilishdan iborat. Qonunda belgilanishicha giyohvandlik vositalarini iste`mol qilish

quyidagi xolatda ya'ni noqonuniy xarakat sodir qilgan shaxe davolash-reabilitatsiya yordamiga murojaat qilgan takdirida jazoga sazovor oo'ladi.

Mahkumlar bilan ahloq tuzatish muassasalarida maxsus davolash-profilaktika chora-tadbirlari o'tkaziladi. Ushbu muassasalardagi giyohvandlikka muhtalo bo'lganlarga davolanish va yordamning ta'minlanishi ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bir kancha axlok tuzatish muassasalarida giyohvandlikni davolash va oldini olish bo'yicha maxsuslashtirilgan bulimlar faoliyat yuritadi. Bundan tashqari giyohvandlik vositalarini suiste'mol qiluvchi mahkumlar o'z muddatning bir qismini davolash-reabilitatsiya muassasalarida va oilaviy-tarbiya markazlarida o'tkazish huqukiga ega.

Giyohvandlikni oldini olish borasidagi xorij tajribasini tadqiq etish shundan guvovlik beradiki, ushbu faoliyatning istiqbolli va ta'sirchan yo'nalishlaridan biri yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va yosh amalga oshirish hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarning yoshlarga oid siyosati yagona ilmiy nazariyaga asoslanmaydi va yosh avlodning xayo'tiy faoliyatini izchil belgilab berishga karatilgan tugallangan yaxlit tizimni tashkil etmaydi. Yoshlar hulqini o'rganish va tushuntirish borasida ko'p sonli ilmiy yo'nalishlar, turli-tuman ilmiy-tadqiqot yondoshuvlarining mavjudligi yoshlar, usmirlar va bolalar muammolarini echishga ko'p sonli ilmiy ishlanmalarni muvaffakiyatli tatbik etish imkonini beradi. Yoshlarga oid siyosatning amal qilishi borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribalarini taxlil qilish va umumlashtirish uni ishlab chikish va amalga oshirishda turlicha yondoshuvlarga qaramasdan ko'pchilik Evropa mamlakatlari yoshlarga oid siyosatining asosiy yo'nalishlarida umumiylikni kayd etish mumkin. Ular orasida kuyidagilarni kayd etib o'tish zarur:

- bugungi kunda yoshlarga oid siyosat rivojlangan mamlakatlarlarda davlat faoliyatining mustakil yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi;

- barcha yoshlar uchun muljallangan keng kamrovli, yagona, markazlashtirilgan, umumdavlat dasturidan mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan maqsadli, markazlashtirilmagan, moslashuvchan loyixalarga o'tish;

- jaxondagi shiddatli o'zgarishlar, ijtimoiy tarakkiyot darajasi sababli uzok vaqtga mo'ljallangan yoshlar dasturlaridan voz kechish kuzatilmokda;

- dasturning amal qilish samaradorligi yoshlar manfaatlari, ehtiyojlari, istaklari, ularning ta'lim sifati, ishga joylashish, dam olish va xizmat ko'rsatish sohalariga nisbatan doimiy o'zgaruvchan talablarining xisobga olinishi bilan bog'liq. Dasturlarda asosiy e'tibor yoshlarning bo'sh vaqtlarini, ta'lim va mexnat jarayonlarini o'tkazish shakllarini tanlashda o'z-o'zini boshkarish va o'z o'rnini o'zi belgilab olishiga karatiladi;

-keng kulamli axborotlashtirishga asoslangan yoshlar dasturlarining ijtimoiy ta'minotidan, ilmiy targibotlardan doimiy foydalaniladi.

Turli mamlakatlarning giyohvandlikni oldini olish va unga qarshi kurash borasidagi tajribalarini o'rganish ularning har biri bu borada o'zining ijobiy tajribasiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribalarini umumlashtirish giyohvandlikni oldini olish borasidagi strategiya avvalambor ijtimoiy omillarga yo'naltirilganligidan dalolat berib u uz ichiga kuyidagilarni: maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida keng va reabilitatsiya qilish dasturlarini kengaytirish; giyohvandlikning oldini olish borasida barcha manfaatdor davlat idoralari va jamoat tashkilotlari kuchlarini birlashtiruvchi tegishli ijtimoiy dasturlar.

Xalqaro-huquqiy normalarni va davlatlarning ichki qonunchiligini o'rganish giyohvandlikning oldini olish, giyohvandlik vositalarining tarqalishiga va ularning noqonuniy muomalasidan keladigan daromadlarni "yuvilishiga" qarshi qat'iy choralar ko'rilayotganligidan dalolat beradi. Shuning bilan birga Evropa va Amerikaning qator ilg'or mamlakatlarida giyohvandlik vositalari bilan bog'lik, harakatlar uchun jinoiy javobgarlik doirasi kengaytirilayotganligi kuzatiladi.

XULOSA

Insoniyat o'z mobaynida nafaqat giyohvandlik muammosining sabablarini bilishga, balki undan samarali himoya vositalarini topish va giyohvandlikning oldini olishga qaratilgan amaliy choralarni ishlab chiqishta harakat kildi. eng achinarlisi shundaki, amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarga qaramasdan insoniyat XXI asrga ham umumjaxon miqyosidagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan - giyohvandlik muammosiga echim izlash orqali qadam quydi.

Hozirgi vaqtda giyohvandlik o'ta murakkab va ijtimoiy xavfli hodisa tusini olgan bo'lib u tomonidan etkazilayotgan zararni amalda hisobga olish imkoniyati yo'qdir. Giyohvandlik va unga qarshi kurashish muammosi faqat O'zbekiston Respublikasi uchun emas, balki butun insoniyat uchun xavf tug'dirayotgan global darajadagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu jinoyatlarni oldini olish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurashning dolzarbligi va murakkabligi shundaki:

biriichidan, giyohvandlik vositalari turli ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari faoliyati moliyaviy ta'minotining asosiy manbai bo'lib kolmoqda.

Ikkipchidan esa, giyohvandlik ijtimoiy, huquqiy, iktisodiy munosabatlar rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatib qaror topgan normal ijtimoiy munosabatlarni izdan chiqishiga olib keladi.

Uchinchidan, Giyohvandlik jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi kriminogen omil hisoblanadi.

To'rtinchidan, eng ayanchlisi yoshlarni jadallik bilan o'z domiga tortayotganligidir.

Giyohvandlikning oldini olish va giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishiga qarshi kurash samaradorligini oshirish sharti va bu borada davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri turli mamlakatlarning ushbu sohadagi qonunchilik, ijro, huquqni muhofaza qiluvchi, tibbiyot va jamoat organlari

faoliyatining ijobiy tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy qilish hisoblanishi lozim.

Hozirgi kunda Respublikamizning qator qonun hujjatlarida giyohvandlikning oldini olishga oid huquqiy choralar nazarda tutilgan bo'lsa-da, buning o'zi etarli emas. Buning uchun avvalambor giyohvandlikni keltirib chikarayotgan shart-sharoitlarni to'g'ri aniqlash, uning samarali profilaktikasini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan,

birinchidan, eng avvalo, giyohvandlikni oldini olishning kompleks choralarini nazarda tutuvchi umumdavlat dasturini qabul qilish, barcha manfaatdor davlat va nodavlat tashkilotlarini, fuqarolarni, ayniksa voyaga etmaganlarni ushbu dastur doirasiga jalb qilish. Ushbu dastur doirasida turli idoralar va tashkilotlar o'rtasida maqsad va vazifalarni aniq taqsimlash. Ushbu dastur bulardan tashqari quyidagi choralarni nazarda tutishi lozim:

-barcha ta'lim muassasalarida yagona, bosqichli giyohvandlikka qarshi majburiy o'quv kursining joriy kilinishi;

-bog'cha, maktabgacha tarbiya va umumta'lim muassasalari yon atrofida alkogolli ichimliklarni savdosini ta'kiqlash, 21 yoshga to'lmagan shaxslarga alkogolli ichimliklarni sotilishini man etish;

-giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasiga qarshi kurashni samarali kurashni tashkil etish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xodimlarning shtatlar sonini ko'paytirish;

-umumta'lim maktablari uchun «Sog'lom hayot tarzi» o'quv dasturini ishlab chikish;

-bolalar va o'smirinlarga ijtimoiy yordamni tashkil qilish;

-korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yoshlarning ishga joylashipga uchun majburiy kvotalarni joriy qilish;

ikkinchidan, vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari oldiga aniq vazifalarni qo'yish;

uchinchidan, ommaviy axborot vositalari orqali muntazam ravishda targ'ibot - tashviqot ishlarini olib borish va maxsus dasturlar berib borish,

giyohvandlikning oldini olishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni takomillashtirish maqsadida ularning manfaatdor idoralar huquqni muxofaza qiluvchi va boshqa idoralar bilan o'zaro aloqalarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari takomillashtirilishi, ishlab chiqilishi yoki amaldagi qonun hujjatlariga yuqoridagi holatlarni nazarda tutuvchi maxsus qoidalar kiritilishi lozim. Tegishli me'yoriy huqukiy hujjatlarda huquqni muxofaza qiluvchi organlar bilan ommaviy axborot vositalarining aloqalari huquqiy va tashkiliy mexanizmlari nazarda tutilishi kerak. Bunda tegishli huquqni muxofaza qiluvchi idoralar tarkibida aholi bilan ishlaydigan, yangi keng funktsiyalar berilgan ijtimoiy aloqalar markazlari, boshqarmalari va bo'limlarining tashkil etilishi maqsadga muvofik bo'ladi. Bundan tashqari, axborotning salbiy ijtimoiy oqibatlar keltirib chiqarmasligiga alohida e'tibor berilishi lozim;

to'rtinchidan, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini ushbu ishga faol jalb qilish va ularning bu boradagi vazifalarini huquqiy ta'minlash;

beshinchidan, joylarda vakolatli idoralar (xususan, huquqni muxofaza qiluvchi organlar va sog'liqni saqlash muassalari) va mansabdor shaxslar ishtirokida doimiy targ'ibot ishlarini olib borish hamda bu boradagi ishchi dasturni qabul qilish;

oltinchidan, barcha turdagi ta'lim muassasalarida majburiy kurslarni joriy qilish;

ettinchidan, giyohvandlik muammosining turli jihatlarini bilan shug'ullanuvchi vakolatli idoralarning moddiy texnik va axborot bazalarini fan-texnikaning so'nggi yutuqlari asosida mustahkamlash, ular o'rtasida tezkor axborot almashinuv tizimini yo'lga qo'yish;

sakkizinchidan, xorijiy mamlakatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini o'rganish;

tuqqizinchidan, xorijiy mamlakatlarning manfaatdor idoralari, xususan huquqni muxofaza qiluvchi vakolatli organlari bilan axborotlar ayriboshlashni yo'lga qo'yish hamda giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurash borasidagi birgalikdagi tadbirlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish;

o'ninchidan, giyohvandlikning oldini olish borasida barcha davlat xokimiyati idoralari, huquqni muxofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlari kuchlarini jipslashtirish;

o'n birinchidan, yuqorida kayd qilingan dastur asosida, giyohvandlikka qarshi kurash va uning oldini olish yuzasidan xududiy dasturlarni ishlab chikish;

o'n ikkinchidan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, huquqiy ta'sir choralari samaradorligini yanada oshirish va Jinoyat qonunchiligining giyohvandlikning oldini borasidagi profilaktik ahamiyatini e'tiborga olib jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi hatti-harakatlar doirasini yanada kengaytirish.

o'n uchinchidan, Huquqni muxofaza qiluvchi organlarning giyohvandlikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo Markazni tashkil etish. Ushbu markaz giyohvandlik giyohvandlik muammolarini o'rganish va taxlil qilish bo'yicha, shuningdek giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo'yicha, shuningdek turli vakolatli idoralarning giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyatini muvofiklashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organ vazifasini o'tashi lozim. Nazarimizda, ushbu organ Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha komissiya o'rnida tashkil etilishi lozim. Giyohvandlikni oldini olish tizimining tarkibiy kismi sifatida ushbu markaz xuzurida giyohvandlikning oldini olish bo'yicha xududiy markazlar tashkil etilishi lozim. Ular faoliyatining asosiy yo'nalishini quyidagilar tashkil etishi kerak:

-yoshlar va voyaga etmaganlar o'rtasida giyohvandlik profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan bolalar, o'smirlar va yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalarini suiste'mol qilishning va uning noqonuniy muomalasining oldini olish;

-bolalar va o'smirlar o'rtasida giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni suiste'mol qilish va ularning noqonuniy muomalasini oldini olish tizimining ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash;

-giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni suiste`mol qilish va ularning noqonuniy muomalasining oldini olish bo'yicha ijtimoiy siyosatni shakllantirish;

-Giyohvandlik va uning zahirida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha choralar tizimlaridan biri surunkali giyohvandlarni ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya qilish institutidir.

Bizningcha, ushbu institutga shaxslarning oldingi ijobiy ijtimoiy va huquqiy holatini tiklashga yo'naltirilgan, giyohvandlik zahiridagi jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy choralarning kompleks tizimi sifatida qaralishi lozim. Shunday ekan, tibbiy va ijtimoiy yo'sindagi maxsus moslashuv (reabilitatsiya) markazlari tashkil etilishi lozim. Bunday markazlarning tashkil etilishi birinchidan, kasallikning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, alkogolizm va giyohvandlik zahiridagi jinoiy hulq-atvor yuzasidan muvofiqlashtirilgan tarbiyaviy, ma'rifiy, davolash-profilaktik va reabilitatsion chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, giyohvandlikni oldini olish bo'yicha reabilitatsion xarakterdagi chora-tadbirlarning tizimi jazoni ijro etish muassasalari doirasida ham joriy etilishi lozim,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. //Xalq so'zi. – 2001. – 30 avg.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O'zbekiston, 2005. –B.47.
3. Karimov I.A. «Mintakada xavfsizlik va barqarorlik yo'lida» - SHanxay xamkorlik tashkiloti sammitida so'zlagan nutk;i. T., 2005 y
4. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 280 b.
5. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. T.15. –T.: O'zbekiston, 2007. – 320 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
7. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. –T.: O'zbekiston, 2008. –341 b.
8. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. T.17. –T.: O'zbekiston, 2009. –277 b. Karimov I.A. eng asosiy mezon – hayot haqiqatni aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.
9. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevordir: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza / 2009 yil 5 dekabr/. – T.: O'zbekiston, 2009.

10. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza, 2010 yil 27 yanvar. // Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruza, 2010 yil 29 yanvar. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza. 2010 yil 12 noyabr. –T. : O‘zbekiston, 2010. –18 b.

Huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. – 40b.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni: O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida. // Xalq so‘zi. -2008. - 2 may.

3.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: (2010 yil 1 martgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). –T.: Adolat, 2010. – 672 b.

4.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2010 yil 1 noyabrgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). –T.: Adolat, 2010. – 396 b.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi 2005 yil 8 avgust Farmoni. // Xalq so'zi. -2005. -9 avg.

6.Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar. To'plam. / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Adolat, 2004. - 212 b.

7.O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). –T.: 2002. –57 b.

8.O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko'rsatmalari, nizom va yo'riqnomalari to'plami.–T.:1999.-427 b.

9.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami.–T.: 2006. – 400 b.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. -2008. -№9.

11.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksiga sharxlar.T., «Adolat» 2009y.

13.5 O'zbekiston Respublikasi «Sudlar to'g'risida»gi qonun (yangi taxrirda) T., «Adolat», 2000 y. 14 dekabr.

14.O'zbekiston Respublikasi «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi qonuni 1999 yil 19 avgust.

15.O'zbekiston Respublikasi «Oliy sudi Plenumi qarorlari tuplami» I-II jild, 1991 -2006 yy. T., «O'qituvchi» 2007y.

16.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining № 293-sopli «O'zbekiston Respublikasi xududida giyohvandlik vosita, psixotrop modda va prekursorlarni olib kirish, olib chiqish va o'tkazish»to'g'risida»gi qarori. 31 iyul 2000 y.

17.«Sudebnaya praktika - po ugolovnim delam». Pod red. Predsedatelya Verxovnogo Suda RF, prof. V.M. Lebedova. M., «YUridicheskieprogrammi». 2005g.

Maxsus adabiyotlar:

18. Abdumajidov F.A., Alimova R.A., Aripov T.E., Norboev A.N., Ochilov T.R. - «Giyoxvandlik vositalari bilan bog'lik jinoyatlarni tergov qilish», «Kriminalistika», darslik, II - jild, T., «Adolat», 2003Y.

19. Alimova R.A. va Ataxujaev S. - «Sud ekspertizasi tashkil qilish va o'tkazish masalalari». O'quv qo'llanma, T., «YAngi asr avlodi». 2001 y.

20. Rustambaev M.X. - «Jinoyat kodeksiga sharxlar». Maxsus kism, T., «Ilm -Ziyo», 2006y.

21. Rustambaev M.X., Norboev A.N. - «Kriminalistika - sxemalar». O'quv qo'llanma, T., «Adolat» 2002y.

22. A.N. Norboev «Hodisa joyini ko'zdan kechirish» - uslubiy qo'llanma- T., «Katortol - Kamolot», 1999y.

23. «Giyohvandlikka qarshi kurash: nazariya va amaliyoti» konferentsiya materiallari, 2002y.

24. Alimova R.A. «Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti» o'quv qo'llanma, TDYUI. 2006 y.

25. Norboev A.N., Alimova R.A. va boshkalar. «Kriminalistika taktikasi», o'quv qo'llanma. - T., «YAngi asr avlodi», 2000y.

26. Norboev A.N., Alimova R.A. va boshkalar. «Kriminalistika texnikasi», o'quv qo'llanma. - T., «Katortol - Kamolot», 1999y.

27. Rustamboev M.X. - «Jinoyat huquqi», darslik, 5 tomlik, T., 2010y.

28. Inogomjonova Z.F. va boshkalar - «Jinoyat protsessi», darslik, «Adolat». 2009 y.

29. P. Fayziev SH.F. - «Jinoyat protsessida surishtiruv», ilmiy - Amaliy qo'llanma, T., TDYUI. 2006y.

30. O.M. Maxkamov., B.T. Mirzaraimov - «OITS va giyohvandliksiz kelajak sari», Risola, Toshkent, TDYUI. 2006y.

31. Shuruxnov N.G. - «Rassledovanie nezakonnogo izgotovleniya, xraneniya, priobreteniya, perevozki i sbita narkoticheskix sredstv». M., 1990g.

32. Gulyaev V.N. - «Obnarujenie mest sokritiya narkoticheskix sredstv, ispolzuemix prestupnikami». M., 1997g.

33. Brilev V.I. - «Nekotorie problemi raskritiya, rassledovaniya, preduprezhdeniya prestupleniy v sfere narkobiznesa». Ekaterinburg. 1994g.

34. Baxchaev V.G., Kurilev I.I., Kalinin L.P. - «Rassledovanie prestupleniy, svyazannix s izgotovleniem i rasprostraneniem sinteticheskix narkoticheskix sredstv organizovannimi gruppami». M., 1995g.

35. Burdanova B.C. i dr. - «Osobennosti provedeniya otdelnix sledstvennix deystviy pri rassledovanii prestupleniy v sfere nezakonnogo oborota narkotikov». SPb.. 1998g.

36. Burdanova B.C. - «Rassledovanie prestupleniy o nezakonnix deystviyax s narkoticheskimi sredstvami». 4.1. SPb., 1992g.

37. Gavrilin YU.V. - «Kriminalisticheskaya taktika i metodika rassledovaniya otdelnix vidov prestupleniy v opredeleniyax i sxemax». Uchebnoe posobie. M., 2004g.

38. Dragin G.N., Kalachev B.F. «Narkomaniya i narkobiznes. Vievlenie i" presechenie nezakonnogo oborota narkoticheskix sredstv i psixotropnix veshestv». M, «YUridicheskaya literatura» 1998g.

39. Vaider M.B. - «Kriminalisticheskaya ekspertiza». Yuridicheskaya literatura. Sankt - Peterburg. 2001 g.

40. Zorin GL. - «Teoritecheskie osnovi kriminalistiki». Minsk. 2000g.

41. Didenko F.K. - «Priminenie nauchnix texnicheskix sredstv i metodov pri osmotra mesto proisshestviya». Yaroslavl lit. posobiya. 1989g.

42. Kurilev I.I. - «Nekotorie voprosi podgotovki i provedeniya osmotra pritonov dlya potrebleniya narkoticheskix sredstv». «Problemi predvaritelnogo sledstviya i doznaniya». Sb. nauchn.tr. M., 1990g.

43. Prikazchikov V.P., Rezvan A.P., Kosarev V.N. - «Rassledovanie prestupleniy, svyazannix s nezakonnim oborotom narkoticheskix sredstv i psixotropnix veshestv». Uchebnoe posobie. Volgograd. Yurid. In-t-Volgogr. 1999g.

44. Allaberganov A.P. - «Giyoxzandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish». O'quv qo'llanma. T, TDYUI. 2008y.

45. M.G. Ikramova - «Otvettstvennost za organizatsiyu i sodержanie pritonov dlya potrebleniya narkotikov. T, 1994g.

46. Rosinskaya - «Kriminalistika», uchebnoe posobie, M., 2000g.

47. A.G. Filippov - «Kriminalistika», uchebnoe posobie v sxemax, M, «Noviy yurist» 1998g.

48. T.X. Islomov - «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bo'yicha ekspertiza xulosalarining ilmiy saviyasini oshirish yo'llari xususida». - O'zR Oliy sudining Axborotnomasi, №1-2 soni, 31-

49. Starinets A.D. - «Osobennosti rassledovaniya prestupleniy v oblasti kontrolya za nezakonnim oborotom narkotikov». Dalnevostochnie kriminalisticheskie chteniya. Vladivostok. 1997g. №2.

50. Vershitskaya G.V. - «Problemi kriminalisticheskogo issledovaniya narkoticheskix sredstv i silnodeystvuyushix veshestv» dissertatsiya. Saratov. 2003g.